

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI**

**XORIJIY FILOLOGIYA FAKULTETI
NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

qo'lyozma huquqida

UDK 8.811.112.2+494.322 uzb.815.813

BAHODIROVA MOHIGUL

**NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLGIK
SINONIMLARNING GRAMMATIK, SEMANTIK
HUSUSIYATLARI**

5A120102- Lingvistika (nemis tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: f.f.n.dotsent
Sh. S. Imyaminova**

TOSHKENT- 2015

**MINISTERIUM FÜR HOCHSCHUL – UND
BERUFSAUSBILDUNG DER REPUBLIK USBEKISTAN
NATIONALE MIRSO ULUGBEK UNIVERISITÄT
USBEKISTAN**

**DER FAKULTÄT FÜR AUSLÄNDISCHE PHILOGIE
LEHRSTUHL FÜR DEUTSCHE PHILOGIE**

BAHODIROVA MOHIGUL

**DIE PHRASEOLOGISCHE SYNONYME IN DER DEUTSCHEN
UND USBEKISCHEN SPRACHEN UND IHRE
GRAMMATISCHE, SEMANTISCHE BESONDERHEITEN**

5A120102- Linguistik

MASTERARBEIT

**Wissenschaftliche Betreuerin:
Dr. Doz. Sch. S. Imjamina**

TOSCHKENT- 2015

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕ-
СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА
ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**ФАКУЛЬТЕТ ЗАРУБЕЖНОЙ ФИЛОЛОГИИ
КАФЕДРА НЕМЕЦКОЙ ФИЛОЛОГИИ**

БАХОДИРОВА МОХИГУЛ

**ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ СИНОНИМИЯ НЕМЕЦКОГО И
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ И ИХ ГРАМАТИЧЕСКО-
СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ**

5A120102- Лингвистика

**ВЫПУСКНАЯ КВАЛИФИКАЦИОННАЯ
РАБОТА**

**Научный руководитель:
Доцент Ш. С. Имяминова**

ТАШКЕНТ-2015

MUNDARIJA

KIRISH	10
---------------------	----

I. BOB. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZELOGIYA MASALALARI

1.1. Nemis tilidagi frazeologizmlarning umumiy tavsifi

1.1.1. Nemis tili frazeologiya tarixiga nazar.....	15
--	----

1.1.2. Nemis tilidagi frazeologizmlarning hususiyatlari.....	17
--	----

1.1.3. Nemis tilshunosligida frazeologik birliklarni tasniflash bosqichlari.....	22
--	----

1.2. O'zbek tilidagi frazeologizmlarning umumiy tavsifi

1.2.1. O'zbek tilida frazeologiya hodisasiga doir nazariyalar...	27
--	----

1.2.2. Frazeologik birliklarni ifoda va xususiyatiga ko'ra ajartilishi.....	29
---	----

1.2.3. O'zbek tilida frazeologizmlarning hususiyatlari.....	33
---	----

II. BOB. TILSHUNOSLIKDA SINONIMIYA MASALALARI

2.1. Nemis va o'zbek tillarida sinonimiya hodisasi, hamda nemis tilshunoslarining sinonimiyaga doir nazariyalari

2.1.1. Nemis va o'zbek tilida sinonimiya hodisasi.....	36
--	----

2.1.2. Nemis va o'zbek tilida sinonimlarning turlari.....	39
---	----

2.1.3. Nemis tilshunoslarining sinonimiya hodisasiga bergan ta'riflari.....	41
---	----

2.1.4. Sinonimlar haqida rus hamda Yevropa tilshunoslari fikrlari va izlanishlari.....	45
--	----

2.2. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlarning turlari va hususiyatlari

2.2.1. Frazeologik sinonimlarning o'rganilish tarixi.....46

2.2.2. Frazeologik sinonimlarning tizim va komponentlar, semantik va stilistik o'zaro aloqaga ko'ra hamda uslubiga ko'ra farqlanishi.....50

III. BOB. FRAZEOLOGIK SINONIMLARNI TARJIMADA BERILISHI

3.1. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlarning morfologik va semantik hususiyati

3.1.1. Frazeologik sinonimlarni tarjimada morfologik jihatdan mos kelish, mos kelmaslik holatlari.....51

3.1.1.1. Otli frazeologizmlar.....52

3.1.1.2. Sifatli frazeologizmlar.....53

3.1.1.3. Ravishli frazeologizmlar.....53

3.1.1.4. Fe'lli frazeologimlar.....58

3.1.2. Freazeologik sinonimlarni tarjimada morfologik jihatdan mos kelish, mos kelmaslik holatlari bo'yicha foiz ko'rinishi.....59

3.1.3. Freazeologik sinonimlarni tarjimada semantik jihatdan mos kelish, mos kelmaslik holatlari.....66

3.1.4. Freazeologik sinonimlarni tarjimada semantik jihatdan mos kelish, mos kelmaslik holatlari bo'yicha foiz ko'rinishi.....67

XULOSA.....	69
ZUSAMMENFASSUNG.....	72
FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	
FOYDALANILAGAN LUG'ATLAR RO'YXATI.....	
ILOVA.....	

KIRISH

Til- har bir xalqning eng muhim milliy ma'naviy boyligi. Xalqlar, avvalo, tiliga qarab millatlarga ajratiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram I. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida alohida ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy- ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili- bu millatning ruhidir. "¹

Undan tashqari, bugun jahon jadal rivojlanib kelayotgan bir davrda, biror bir chet tilini o'rganish hayotimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'rganayotgan tilimizni qanday vujudga kelgani, hamda uning grammatik qurilishi qanday ekanligini bilish va uni taxlil eta olish juda ahamiyatlidir. Biz olib borayotgan tadqiqotimiz ham aynan shu asosga tayanib, nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlar va ularning grammatik, semantik hususiyatlarini taxlil etish yuzasidan amalga oshirildi.

- **Mavzuning dolzarbligi:**

Magisterlik dissertatsiyasi mavzui "Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlar va ularning grammatik, semantik hususiyatari tahlili" bo'lib, berilgan ikki tildagi frazeologiya sohasini solishtirgan xolda tilshunoslikda tutgan o'rnini yanada kengroq ochib berishdan iborat. Shu ma'noda tadqiqot mavzuining dolzarbligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, frazeologiya hozirgi zamon tilshunosligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, har bir tildagi turg'un birikmalarning ma'nosi va tuzilishini o'rganadi. Barcha tillarda leksik hamda frazeologik qatlamlar mavjud, bir biriga o'xshash bo'lmagan tillardagi frazeologik qatlamlarini taqqoslash frazeologizmlarning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Bu esa, frazeologiya doirasida erishilgan ilmiy izlanishlar hamda natijalarga tayangan holda, ushbu yo'nalishdagi tushunchalar mazmuniga aniqlik kiritish, ilmiy

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti. 2008, 83

asoslangan ta'riflarni bir biriga taqqoslab ularning ma'nolarini aniq yoritishni taqazo etadi;

ikkinchidan, nemis tilidagi frazeologik sinonimlarning kelib chiqish tarixini, nima uchun va nima maqsadda frazeologizmlarda sinonimlarning qo'llanayotganligini, bundan tashqari, ikki tildagi frazeologik sinonimlardagi grammatik hamda sintaktik jihatlarini ma'no hamda qurilishi jihatdan ularni tarjimada tahlil etish.

● **Muammoning o'rganilganlik darajasi:**

Frazeologiya tadqiq etishning rivojlanishida rus tilshunosligi, avvalambor juda muhim rol o'ynaydi. Mashhur rus tilshunos olimi V.V. Vinogradov frazeologiyani XX- asrda mustaqil fan sifatida e'tirof etgan bo'lsa, frazeologik sinonimlarning o'rganilishi esa 50- yillar o'rtalariga to'g'ri kelgan. Umuman, frazeologiya fanini rivojlanish tarixini xronologik jixatdan uch davrga bo'lib o'rganish mumkin:

Birinchi davr: XIX asrning o'rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, ushbu davr frazeologik tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishi masalasi M. V. Lomonosov, V. I. Dal, A. A. Potebnya, F.F. Fortunatov, F. I. Buslaev, Sh. Balli, A. A. Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog'lik.

Ikkinchi davr: E. D. Polivanov , V.V.Vinogradov kabi olimlarning ilmiy faoliyati bilan bog'lik, xolda rivojlandi va ushbu davr XX asrning 30-50-yillarini o'z ichiga oladi. Yana bu davrni frazeologiyaning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri xam deyish mumkin.

Uchinchi davr: XX asrning 60-yillaridan boshlanib hozirgi kunlargacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda yangi metodlarning qo'llanilishi, frazeologik nazariyaning tez, sur'atlar bilan rivojlanishi va ko'plab frazeolog mutaxassislarning yetishib chiqqanligi bilan xarakterlanadi .

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, professor E. A. Malinovskiy «XX asrda rus frazeologik nazariyasining shakllanishi» nomli monografiyasida (Samarqand, 2007) rus tilshunosligida XX asrda frazeologik ta'limotning shakllanish tarixini quyidagicha to'rt davrga ajratib o'rgangan:

a) *XX asr boshlarida (1900-1920 yillarda) rus tilshunosligida vujudga kelgan frazeologik ta'limot;*

b) urushgacha bulgan davrda (1920-1940 yillarda) rus tilshunosligida frazeologik ta'limotning taraqqiyoti;

v) XX asrning 50-60-yillarida rus tilshunosligida frazeologik ta'limotning rivojlanishi;

g) XX asrning 70-80-yillarida rus tilshunosligida frazeologik ta'limotning taraqqiyoti.

Frazeologiyaning shakllanish tarixiy o'rganish (L. Y. Royzenzon, M. M. Kopilenko, V. L. Arxangelskiy, E. X. Rot, V. N. Teliya, V. P. Jukop, E. A. Malinovskiy) sohasida qator ishlar amalga oshirildi. Bu sohada I. I. Chernisheva, M. D. Stepanova, A. D. Rayxshteyn, M. D. Gorodnikova, L. R. Zinder, L. E. Binovichlarning nemis frazeologiyasi bo'yicha amalga oshirgan ishlarini ta'kidlash o'rinlidir.

Keyinchalik tilshunoslik soxalaridan biri bo'lgan frazeologiya sohasini rivojlanishi va mustaxkam o'rin olishida Fridrix Zeylarning "Nemis tili frazeologiyasi" ning semantik va strukturaviy tuzilishi bo'yicha nemis tili tilshunosligida yirik tadqiqot olib borganligini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, u o'z ishida nafaqat frazeologiya soxasini yoritishga, balki nemis tilining so'z boyligini maqol va matallar orqali xam maxorat bilan ko'rsatib bera olgan. Undan keyingi nemis tili frazeologiyasining rivojlanishi bo'yicha aloxida tilshunos olimlarning A. Richter, R. Klappenbax va E. Agrikola shuningdek boshqalarning qilgan yirik ishlari frazeologik birliklarni mazmunan va tuzilishi jixatidan klassifikatsiya qilish bo'ldi. Keyinchalik quyidagi tilshunos olimlar W. Fleischer, W. Friedrich, V. N. Telija, R. Eckert, H. Burger, B. Wotjak, J. Nausermann, W. Schmidt tomonidan qilingan oxirgi yillardagi ko'pgina ilmiy va amaliy ishlarning qilingani ayniqsa ahamiyatli. ²

- **Tadqiqotning maqsadi:**

Tadqiqotning asosiy maqsadi nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlarning semantik, grammatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. (nemis tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilingan asarlar yordamida).

² <http://google.uz/frazeologii/094070/uz>

- **Tadqiqotning vazifalari:**

- ❖ Nemis tilidagi frazeologizmlarni taxlil etish;
- ❖ Nemis va o'zbek tillarida sinonimiya hodisasini yoritish;
- ❖ Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlarning morfologik xususiyatlarini o'rganish;
- ❖ Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlarning semantik xususiyatlarini yoritib berish;

- **Tadqiqotning obyekti va predmeti:**

Nemis tilidagi frazeologiya sohasidagi ilmiy asarlar shuningdek sinonimlar to'g'risidagi nazariy qarashlar va ijtimoiy voqealik tadqiqotning obyekti hisoblansa, frazeologik sinonimlarning semantik xususiyatlarini yoritish tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

- **Tadqiqotning metodlari:**

Qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, kuzatish, taqqoslash shuningdek, birlashtirish metodlari kabilardir.

- **Magistrlik dissertatsiyasining qisqacha tavsifi:**

Dissertatsiya an'anaviy "Kirish", "Xulosa", "Asosiy qism" va "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan" dan tashqari uch mustaqil bobdan iborat.

Birinchi bob "Nemis va o'zbek tillarida frazeologiya masalalari" deb nomlanib, mazkur bob ikki tildagi frazeologizmlarni o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishga bag'ishlangan.

Ikkinchi bob "Tilshunoslikda sinonimiya masalalari" deb atalib, bob nemis va o'zbek tillaridagi sinonimiya hodisasi haqida va unga doir ikki tildagi ilmiy ish olib borgan olimlar nazariyalarini ochib berishga bag'ishlangan.

Uchinchi bob "Frazeologik sinonimlarni tarjimada berilishi" deb nomlanib, mazkur bob, nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlarning morfologik va semantik hususiyatlarini, hamda ularning tarjimada mos kelish, mos kelmaslik holatlarini o'rganadi.

I BOB. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZELOGIYA MASALALARI

1.1. NEMIS TILIDAGI FRAZELOGIZMLARNING UMUMIY TAVSIFI

1.1.1. Nemis tili frazeologiya tarixiga nazar

Barcha tillarning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi vositalardan biri frazeologizmlardir. Frazeologiya har bir tilning muhim qatlami hisoblanib, uning o'ziga xos hususiyatlarini yaqqol ko'zga tashlanishida muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko'p bo'lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar) xalqning o'tmishi, tarixi, an'analari, urf-odati, va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy hususiyatlari mujassam bo'ladi, ular chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko'rk va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Frazeologiyaning shakllanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u tilshunoslikning boshqa bo'limlariga qaraganda ancha yangi bo'lim bo'lib, XX asrning 50- yillaridan boshlab leksikologiyaning bag'ridan alohida bo'lim sifatida ajralib chiqqan. Ushbu bo'limning mustaqil soha sifatida shakllanishida mashhur rus akademigi V.V.Vinogradovning hizmati nihoyatda beqiyosdir. Ushbu olimni frazeologiyaning asoschisi deb atash o'rinlidir. Buyuk fraznsuz olimi F.de Sossyur ham o'z davrida frazeologizmlarni tildagi tayyor birliklar sifatida qayd etgan.

Frazeologiya (idiomatika) esa ko'proq insonning ruhiyati, kishilar o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy-etnik baholarni ifoda etadi. Dunyoda frazeologizmlar mavjud bo'lmagan tilning o'zi yo'q. Frazeologiyani o'rganish o'ziga xos uslubni talab etadi, shuningdek, boshqa bir qator tilshunoslik fanlari leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, tarix, mantiq va mamlakatshunoslik fanlari ma'lumotlariga tayangan holda o'rganishni taqozo etadi. Unig murakkabligi ham shundadir. Frazeologiya fanini o'rganishning o'ziga xos ba'zi muammolari mavjud bo'lib, bu borada mutaxassislarning fikrlari turlichadir. Darhaqiqat, frazeologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchilarning oldida

turgan dolzarb vazifalardan biri frazeologiya sohasidagi nazariy va amaliy fikrlarni umumlashtirib, to'g'ri ilmiy- tadqiqotni amalga oshirishdan iboratdir.

Tilshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar V. Flaysher, V. V. Vinogradov, E. D. Polivanov, B. A. Larin, A. V. Kunin, N. M. Shanskiy, L. P. Smit va Sh. Ballilar ham frazeologiya va uning masalalari borasida alohida tahsinga loyiq ishlarni amalga oshirishgan va mazkur sohaning taraqqiyotida ularning xizmatlari nihoyatda beqiyos bo'lgan.

Frazeologizmlar - bu hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo'lib, tildagi mavjud so'z birikmalarining umumiy hisobidan juda qiyinchilik bilan farqlanadigan ko'p aspektli til hodisasi xisoblanadi. Shuning uchun ham tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologizmlarning lingvistik mohiyati masalasi hanuzgacha munozaraligicha qolmoqda.³ Sh. Balli frazeologiyaning asosiy belgisi uning o'rnini o'sha iboraning ma'nosiga to'g'ri keladigan so'z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi, deb hisoblasa,⁴ B. A. Larin esa uning asosiy belgisi frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi alohida so'zlarning ma'nosidan o'sha birliklar umumiy ma'nosining kelib chiqmasligidadir, deb hisoblaydi⁵.

Shuningdek, frazeologik birliklar:



³ <http://frazeologiya-haqida.uz/76300/uz>.

⁴ Балли Ш. Французская стилистика. М.: Vishaya shkola, 1961, С. 100

⁵ Ларин Б. А. очерки по фразеологии. Л.: 1956, С. 202- 224

⁶ Схема muallifga tegishli (M. B.)

Frazeologizmlarning paydo bo'lishi inson tafakkuri bilan tilning leksik imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Nemis frazeologiyasi boy va shu bilan birga uzoq tarixga ega. Bunda sof nemis tilidagi frazeologizmlar qatorida chet tilidan qabul qilingan, ya'ni internatsional frazeologizmlar ham mavjud.

Frazeologizmlarga faqatgina tilning "bezagi" sifatida qarab bo'lmaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o'zi yo'q, xususan nemis tili frazeologiyasi ham juda boy va o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Nemis tili lingvistikasida frazeologiya nazariyasiga oid bir qator ilmiy ishlar mavjud.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Sharl Balli *phraseologie*⁷ atamasini «stilistikaning so'z birikmalarini o'rganuvchi bo'limi» ma'nosida kiritdi, ammo mazkur atama G'arbiy Yevropa lingvistlarning asarlarida boshqa uch ma'nolarda o'z aksini topdi:

1. so'z tanlash, ifoda shakli, ta'riflash;
2. til, bo'g'in, uslub;
3. ifoda, so'z birikmasi.

Frazeologiyaga mustaqil fan va fan sohasi sifatida qarashni birinchi bo'lib mashhur rus tilshunos olimi E. D. Polivanov ilgari surdi hamda bu masalaga ko'p marotaba qaytdi⁸. Uning ta'kidlashicha, leksika – so'zlarning o'ziga xos lug'aviy ma'nosini o'rganadi, morfologiya so'zlarning shakliy tuzilishini, sintaksis esa so'z birikmalarining shakliy ma'nosini o'rganadi.⁹

“Shunday ekan, alohida bo'limga ehtiyoj tug'ilib, sintaksisga yaqin, lekin ayni paytda so'z birikmalarining umumiy ma'nosini emas, balki alohida birikmalarning o'ziga xos ma'nosini o'rganuvchi, huddi leksika alohida so'zning ma'nosini o'rgangani kabi bo'lim yaratish zarur. Tilshunoslikning bu bo'limini

⁷ Bally A. *Precis de stylistique G.*: Geneve, 1905, p.102

⁸ Поливанов Е. Д. *Русский язык сегодняшнего дня*. М.: Л., 1928, С.144.

⁹ Востоков А. Х. *Русская грамматика по начертанию его же сокращенной грамматики* С.: 1835, С. 219.

men frazeologiya deb atayman. Ushbu ma'noni anglatuvchi boshqa atama ham taklif etish mumkin - «idiomatika»¹⁰.

E. D. Polivanovning aytishicha, kelajak lingvistik adabiyotida boshqa bir qator masalalar o'rtasida bizning fanimizga yengil- yelpi yondashishdan holi bo'lgach, bu bo'lim fanda barqaror va jiddiy o'rniga ega bo'ladi.¹¹

E. D. Polivanovdan so'ng olim B. A. Larin ushbu masala bo'yicha shug'ullandi. B. A. Larin, frazeologiya tadqiqot ob'ekti sifatida hali o'zining «yashirin rivojlanish» darajasida ekanligi va bu borada jiddiy izlanishlar olib borilmagani, shuningdek, uni leksikografiya, stilistika va sintaksis materiallaridan ajratgan holda o'rganish talab etilayotganini aytadi.

Avval frazeologiyaga leksikologiyaning bir bo'limi sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi kunda u leksikologiyaning bir bo'limi darajasidan o'zining tadqiqot ob'ekti va uslubiga ega bo'lgan tilshunoslikning mustaqil fanlaridan biriga aylandi.

Frazeologiya fanining tarix, adabiyotshunoslik, lisoniy mamlakatshunoslik va tilshunoslikning bir qator boshqa fanlari leksikologiya, semantika, grammatika, fonetika, stilistika, til tarixi, etimologiya, matn tilshunosligi va umumiy tilshunoslik kabi fanlar bilan bog'liqlik jihatlari ham mavjud.

Frazeologiya leksemalardan tashkil topadi, leksemalar esa leksikologiyaning o'rganish obyekti hisoblanadi. Frazeologiya komponentlarining tabiatini hamda ularning lisoniy darajasini leksikologiyaning manbalariga tayanib aniqlash mumkin. Semantika esa frazeologiyaning lisoniy xususiyatini aniqlashda va frazeologiya tarkibidagi so'zlarning ma'nolarini farqlashga yordam beradi.¹² Frazeologiya tarkibiga so'z birikmalari va iborali gaplar kiradi, aynan shu so'z birikmalari hamda iboralarning grammatik xususiyatlarini o'rganish uchun esa, sintaksis bo'limiga murojaat etiladi.

Frazeologiya tarkibidagi so'z o'ziga xos fonetik ko'rinishga ega bo'ladi, lekin

¹⁰ Поливанов Е. Д. Русский язык сегодняшнего дня. М.: Л., 1928, С.144.

¹¹ Поливанов Е. Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов Л.: 1928, С. 61.

¹² <http://google.uz/frazeologiya/uz/094090/uz>

u rivojlanish jarayonida bu ko‘rinishini o‘zgartirishi mumkin. Mana shu holatlarni aniqlash uchun esa, albatta, tilshunoslikning fonetika sohasiga murojaat qilinadi. Frazelogizmlar, idiomatizm va idiofrazematizmlarning bo‘yoqdorlik va ta’sirchanlik quvvati kuchli, ularning ma’nosida konnotativ (lug‘aviy) aspekt yuqori bo‘ladi. Frazelogiyaning stilistik xususiyatlarini o‘rganuvchi soha bu frazeologik stilistika bo‘lib, u albatta, leksik stilistikaga suyanadi. Til tarixi va etimologiya esa frazeologizmlarni etimologik tahlil qilishda yordam beradi. Frazelogiyaning nutqda qay darajada aktualligini tahlil qilishda matn tilshunosligi nazariyasiga tayanish mumkin.

Ko‘plab tillarda bo‘lgani kabi nemis tilshunosligida ham bu sohada izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar talaygina. Jumladan, U. Fiks, T. Shippan, X. Burger, M. D. Stepanova, I. I.Chernishyova, A. Rotkegel va boshqalar.

1.1.2. Nemis tilidagi frazeologizmlarning hususiyatlari

Tilshunoslikda lugʻat zahirisining boyib borishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. Tilning lugʻat boyligi asosan soʻzlardan iborat. Leksik birliklar deganda, nafaqat alohida soʻzlarni tushunamiz, balki turgʻun soʻz birikmalarini (frazalar, turgʻun ibora, frazeologizmlar) ham tushunamiz. Ushbu soʻz birikmalarini chuqur tahlil qilishdan avval, soʻz birikmasi tushunchasiga alohida toʻxtalib oʻtsak. Soʻzlar tilda odatda alohida tarzda emas, balki erkin sintaktik birikma tarzida mavjud boʻladi. Erkin sintaktik birikmalar ikki yoki undan ortiq soʻzlarning grammatik birlashuvidir. Bunday sintaktik soʻz birikmalari semantik nuqtai nazardan ham analiz qilinishi mumkin. Chunki bunday soʻz birikmasining har bir komponenti oʻzining asl maʼnosida va koʻchma maʼnoda boʻlishi mumkin. Barcha soʻz birikmalarining umumiy maʼnosi ularning komponentlari maʼnolarining birlashuvidan yuzaga keladi.

Masalan, *ein schönes Mädchen, ein faules Mädchen, ein gehörsames Mädchen* yoki *in die Disco gehen, in den Zoo gehen, ins Theater gehen* va boshqalar. Bunday soʻz birikmalari soʻzlashuv jarayonida yaratiladi. Erkin soʻz birikmasi qoʻllanish jarayonida oʻz maʼnosini yoʻqotishi va koʻchma maʼno hisobiga turgʻun birikmaga aylanishi mumkin.

Masalan, *Jemandem das Gesicht, die Hände, den Kopf, waschen* birikmalari oʻzining asl maʼnosida erkin sintaktik soʻz birikmasi sifatida uchraydi va *kimnidir yuzini, qoʻllarini, boshini yuvmoq* deb tarjima qilinadi. Lekin *Jemandem den Kopf waschen* birikmasi esa, koʻchma maʼnoda ibora sifatida ishlatiladi va *kimnidir koyimoq, tanbeh bermoq* tarzida tarjima qilinadi. Yana bir misol: *Etwas (jemanden) in der Hand haben* yoki *halten* birikmasi oʻzining asl maʼnosida erkin sintaktik soʻz birikmasidir. Masalan, *ein Buch in der Hand halten*. Ushbu jumla *qoʻlida kitob ushlab turmoq* deb tarjima qilinadi. Koʻchma maʼnoda esa u turgʻun soʻz birikmasi hisoblanadi va *kuchga ega boʻlmoq* maʼnosini anglatadi. Ushbu turgʻun birikmani misol tarkibida koʻrib chiqsak. *Er hielt ihm in der Hand, er konnte ihn vernichten!* (H. Mann). Bu gapni *Uning taqdiri hozir uni qoʻlida,*

hoxlasa yo'q qilib tashlashi mumkin deb tarjima qilinadi. Quyidagi soʻz birikmasiga *Ein Faden ein Band um den Finger wickeln* ham alohida tarzda qaralganda, oʻzining asl maʼnosida, yaʼni *ipni* yoki *bantikni barmogʻiga oʻramoq* tarzida tarjima qilinadi. Lekin ushbu birikmalar jumlar tarkibida oʻz maʼnosini yoʻqotib, koʻchma maʼno kasb etadi. Va turgʻun ibora sifatida qoʻllanadi.

Masalan, *jemanden um den Finger wickeln* birikmasi koʻchma maʼnoda kelgan boʻlib, *kimnidir boshqarmoq*, baʼzan esa, *aldamoq* maʼnosini anglatadi. Erkin soʻz birikmasining rivojlanish jarayoni turgʻunlikda tadrijiy usulda amalga oshadi. Baʼzan uning turgʻun birikma yoki erkin soʻz birikmasi ekanligini aniq aytish qiyin. Turgʻun soʻz birikmalari tilda nutq jarayonida mustaqil ravishda soʻz tarkibining leksik elementi sifatida mavjud boʻladi va qoʻllanilishida alohida soʻzlar maʼnosiga yaqin turadi. Ular nutq jarayonida yaratilmaydi, balki tasvirlanadi. Masalan, *Das Schwarze Meer, in Bewegung bringen, dicke Luft* va boshqalar. Soʻz birikmalari ham soʻzlar kabi lugʻat boyligiga kiritilgan va tilning boyishiga hizmat qiladi.

Fan nuqtai nazaridan olib qaraganda, turgʻun soʻz birikmalari yaʼni, frazeologizmlar mustahkam, oʻzgarmas soʻz gruppalari hisoblanadi va nutqda alohida soʻzlarning maʼnosiga teng keladi. Turgʻun soʻz birikmalarining ikki xil shakli mavjud: qoʻshimcha maʼno anglatadigan va qoʻshimcha maʼno anglatmaydigan. Ularning komponentlari oʻzaro jamlanib, umumiy maʼno kasb etadi va oʻzgarmas tarzda qoladi.¹³

Frazeologiya fan nuqtai nazari ikki maʼnoli boʻlib, uning birinchi maʼnosi barcha koʻchma maʼnodagi turgʻun soʻz birikmalari (frazeologizmlar) ning umumlashmasi boʻlsa, ikkinchi maʼnosi esa, turgʻun soʻz birikmalari oʻrganiladigan tilshunoslikning bir boʻlimini anglatadi. Frazeologiyaning turli xil muammolari bilan koʻplab tilshunos olimlar shugʻullanib kelishmoqda. Nemis tilidagi koʻplab ilmiy asarlar frazeologiyaning dolzarb muammolariga bagʻishlangan. U erda frazeologizmlar maʼnolarining batafsil tushunchalari va ularning kelib chiqishi haqida koʻplab muhim maʼlumotlarni topish mumkin.

¹³ <http://google.uz/frazeolgiya/uz/094090>

Lekin frazeologizmlarning nazariy izohlari mavjud emas. Ushbu asarlarda alohida tasvirlangan hususiyatlar mavjud bo‘lib, ulardan asosiy ma’lumotlar olish uchun foydalanish mumkin.¹⁴

¹⁴ Borchard Wustmann-Schoppe. Die sprichwörtlichen Redensarten im deutschen Volksmund nach Sinn und Ursprung erläutert, 7. Aufl., Leipzig 1955 & A-Richter, Deutsche Redensarten, Leipzig 1889 & G. Büchmann, Geflügelte Worte und Zitatenschatz, Stuttgart 1958 u.a.

1.1.3. Nemis tilshunosligida frazeologik birliklarni tasniflash bosqichlari

Frazeologizmlar nemis tilshunosligida o'rganila boshlagach, frazeologik birliklarni tasniflash, tizimlashtirish masalasi ko'tarila boshlandi. Nemis tilshunos olimlari frazeologizmlarni turlicha yondashuvlar asosida klassifikatsiyalashgan. Masalan, M. D. Stepanova hamda I.I.Chernishyovalar frazeologizmlarning strukturaviy hamda semantik jihatdan tasniflagan. Teo Shippan ham frazeologizmlarning ikki turini ajratib ko'rsatgan, ya'ni frazeologik butunlik va turg'un birikmalar. Yana bir tilshunos olim U. Fiks esa, frazeologizmlarni erkin gap bilan taqqoslaganda, fe'llar ma'nosining mos kelishi yoki mos kelmasligiga ko'ra ikki turini farqlaydi. Demak, tilshunos olimlar frazeologizmlarni turli xil jihatlarini o'rganishga urinishgan.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi frazeologiya ham o'zining o'rganish obyektiga ega. Frazeologiyaning o'rganish obyekti o'z navbatida shunday murakkab va o'ziga xoski, uni o'rganish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan tilshunoslik fanlari rivojlanishiga yangi manbalar yaratadi.

Frazeologiya nemis tilshunosligida umuman olganda asosiy mavzu ekanligi allaqachon isbotlab ko'rsatib berilgan. Avvalombor, muhokamada tasniflash masalasi turadi. Frazeologizmlarda so'z yasalishidagidek struktur tiplari va yasalish elementlari (affikslar) ning alohida sistemasi mavjud emas.

Mavzu so'z gruppalari va gaplar haqida ketganligi tufayli so'zlar uchun qo'llanila oladigan tasniflash kriteriyalari frazeologizmlarda to'liq ko'chirilmaydi. Bu erda qandaydir tur klassifikatsiyasi haqida gap ketayotgani yo'q, balki kamdan-kam uchraydigan hodisalar, ya'ni frazeologizmlarning funksiyasi va mazmun-mohiyatidagi nuqtai-nazar, qarashlar, ularning turg'unligi va boshqa til birliklari bilan o'zgaruvchanlik aloqalarini ko'rib chiqish haqida ketmoqda.

Frazeologik konstruksiya mohiyatining xarakterlanish bilan aloqadorligi tasniflash kriteriyalari sifatida ko'rib chiqilgan. Bir tomondan frazeologizmlardagi komponent sifatidagi qo'llanilayotgan so'larning ma'nolari orasidagi

”noqonuniy” munosabat va boshqa tomondan esa, frazeologizmlarning mutlaqo aniq qo‘yilgan faktorlari, frazeologizmlarning ma’nolari semantik klassifikatsiya kriteriyasini ko‘rsatadi. Lekin kelib chiqish darajasida alohida bo‘linishini, farqlanishni qamrab ololmaganligi tufayli, boshqa keyingi funksional va struktur kriteriyalarni ham o‘ziga yaqinlashtiradi. Mavzuni va predmetni aniqlash so‘z va so‘z yasalishi konstruksiyasi predmetini aniqlashdagi turli xil muammolarga qaraganda biroz qiyinroq. Mana shuning uchun hamma klassifikatsiya tajribalariga birinchi navbatda ana shu ta’sir ko‘rsatadi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida tilda mavjud bo‘lgan so‘z komplekslarining aniq kombinatsiyalarining barcha turlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Shu holda tushunilgan frazeologiya ham frazemani (bir so‘z turkumidagi grammatik strukturali turg‘un so‘z birikmasi), ham frazalarni (gapning grammatik strukturali turg‘un so‘z birikmasi) qamrab oladi. Frazeologizmlarning ikkala asosiy turlari quyidagi punktlar bo‘yicha tadqiq qilinishi kerak va shu bilan birga o‘ziga xos fan bo‘limlari beriladi:



Shunday qilib, birliklarining erkin bo‘lmagan kombinatsiyalarida frazeologiyaning fan sifatidagi ko‘rinishini sezish mumkin.

¹⁵ Sxema muallifga tegishli (M. B.)

Frazeologizmlar haqli ravishda lug‘at boyligining birliklari sifatida tadqiq qilinishi va xuddi so‘zlar kabi tasvirlanishi lozim. Bu misol uchun frazeologizmlar va alohida so‘zlar uchun asosiy umumiy tushuncha sifatida leksema terminining qo‘llanilishida o‘z ifodasini topadi.

Yaxlit holda keltirilgan frazeologiya xuddi sintaxis va morfologiya kabi chambarchas bog‘liq yo‘nalish sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan.¹⁶

N. Teliya ham muammoli masala sifatida frazeologiyaning ko‘rinishini leksikologiya bilan yonma- yon mustaqil bo‘lim sifatida ajratdi va til sistemasi bo‘limlarida batafsil asoslash bilan frazeologik qatlamning yuzaga kelishini rad etadi va tilning leksik semantik birligi sifatida e’tirof etilgan so‘zning muammoli masalalaridan an’anaviy frazeologiyaning muammoli masalalarini ajratishni frazeologik tadqiqotlarning kamchiliklaridan biri deb izoh berdi.¹⁷

Nemis frazeologiyasining birinchi mustaqil umumiy ifodasi avval ham aytib o‘tilganidek, rus tilshunos olimi I. I. Chernyashevaga taalluqlidir. U “frazeologik birliklar”ni (kamida bitta komponentning ma’nosi bilan) va frazeologik tipga xos bo‘lmagan “turg‘un so‘z komponentlar”ini bir-biridan farqlab berdi. Frazeologizmlarga xos bo‘lmagan turg‘un so‘z komplekslarini Chernyasheva “leksik birliklar” “frazeologiyalashgan yasaliş” (jm. einem Verhör/einer Prüfung unterziehen) va “modellashgan yasaliş” (in Verlegenheit sein/ zur Kenntnis bringen/nehmen) kabilarga ajratgan. Ushbu klassifikatsiyadan I. I. Chernyasheva u qadar qoniqmadi. U navbatdagi ishlarida frazeologiya masalalarin, predmetini aniqlash va tasniflash bilan ochib berishga harakat qildi. Lekin keyingi ishlari tugallanmay qoldi. Uning tugallanmay qolgan ishlari frazeologik birliklarning sinonimligi va ko‘p ma’noliligi, umumiy qoidalar bo‘yicha frazeologik sistemaning rivojlanishi, frazeologik yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi kabi masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan.¹⁸

¹⁶ <http://google.uz/frazeolgiya/uz/094090/uz>

¹⁷ Teliya B. N. Phraseologie S.: 1975, S. 417

¹⁸ Yuqoridagi manba

Nemis tilshunos olimi X. Burger ham frazeologizmlar masalalari bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirgan. U asosan idiomalarning stilistik aspektlariga va ularni tarjima qilish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. U frazeologizmlarning bir guruhi sifatida idiomalarni sharhlab o'tgan. X. Burgerning fikricha, birikmaning umumiy ma'nosi qoidadan mustasno tarzda talqin qilinadi. Bunda ko'rsatilgan ko'chma ma'noli so'z birikmalari yoki ularning umumiy ma'nolari hech qanday holatda komponentlarning erkin ma'nosidan tushunilmaydi.¹⁹

Ma'lumki, frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq leksemadan tashkil topadi. Uning komponentlari orasida o'zaro sintaktik va semantik aloqa mavjud bo'ladi. FB²⁰ komponentlarining semantik mustaqil bo'lgandagi farqlari avvaldan mavjud bo'lganlaridan frazeologizmlarning yasalishida ham muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, leksik komponent o'zgarmas tarkibi bir frazeologizmning belgisi ekanligini keltirib chiqaradi. FB²⁰larning tarkibiy qismlari sifatida so'zlar leksik- semantik paradigmadan kelib chiqadi va leksik- semantik sistemaning birligi sifatida so'zdan farq qiladigan struktur funksiyaga ega bo'ladi.²¹

Bu masalada A. I. Malotkov ko'proq shug'ullangan. Frazeologizm u uchun na yolg'iz bir so'z bilan, na so'z gruppalari bilan o'xshash, balki alohida leksik ma'noga, ko'plab komponentlar strukturalariga va o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan birlikdir.

Frazeologizmlarning komponentlari bo'yicha dastlab ba'zi lug'atlar va maxsus frazeologik materiallar jamlanmasi asosida ikki yoki undan ortiq tillarda tadqiqotlar olib borildi. Reyxshteynning aniqlashicha, nemis va rus tillarida quyidagi komponentlar frazeologizmlarning 15-20% ni tashkil etadi: *Auge/glaz/ko'z*, *Nase/nos/burun*, *Wort/slovo/so'z*, *Ohr/uxo/quloq*, *Herz/serdse/yurak*, *Tag/den/kun* kabilar. Ushbu so'zlar hayvonlar, tabiat hodisalari, uy sharoitida ishlatiladigan va uchraydigan belgilar asosida darajalanadi.

¹⁹ Burger Harald. *Ideomatik des Deutschen* Frankfurt aM.: 1973, S. 11

²⁰ Bundan keyin „Frazeologik birliklarni“ shunday yuritimiz

²¹ Telija B. N. *Phraseologie* S.: 1975, S. 418

Nemis tilida komponentlar ko‘plab nominal kompozitaga ega. Ana shu turdagi frazeologizmlar orasida faol komponentlarning uchrashi nemis tilida 1,5 % ni tashkil etadi. Rus tilida esa bu holat ko‘proqdir. Reyxshteynning ma’lumotlariga ko‘ra, buning asosiy sabablaridan biri frazeologizmlarning ko‘p qismi nemis tilidagi quyidagi fe’llarda faollashgan: *sein, haben, machen, kommen, gehen, sitzen, bringen* va ular nemis tilidagi fe’llarning 30% ni tashkil etadi.²²


Xulosa o‘rnida shun ta’kidlba o‘tish joizki, nemis tilshunosligida frazeologiyaning alohida soha sifatida shakllanish jarayoni davom etmoqda va ushbu sohada ko‘plab yangiliklar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan frazeologiyaning yechilishi lozim bo‘lgan muammoli qismlari, ushbu sohaning naqadar chuqur o‘rganish kerakligini yaqqol ko‘rsatib bermoqda.

²² <http://google.uz/frazeolgiya/uz/094090>

1.2. O'ZBEK TILIDAGI FRAZELOGIZMLARNING UMUMIY TAVSIFI

1.2.1. O'zbek tilida frazeologiya hodisasiga doir nazariyalar

Har bir til o'zining ozmi- ko'pmi tarixiga ega bo'ladi. Jumladan, o'zbek tili ham o'zining boy tarixiga ega bo'lgan tillar sirasiga kiradi. O'zbek tilshunosligining frazeologiya sohasiga nazar tashlasak, uning shakllanish va rivojlanishi zabardast olim Sh. Raxmatullaev nomi bilan bog'liqligiga amin bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda tilshunos olimlar Y. D. Pinxasov, M. Husainovlar ham o'zbek frazeologiyasining rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shganlar.²³ Ushbu mualliflar V.V.Vinogradovning frazeologizmlar tasnifi asosida o'zbek frazeologizmlari doirasini chegaraladilar va ularni uch guruhga bo'ldilar:



24

Tarkibidagi bir so'z asl ma'nosida, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'no anglatgan holda biriksa, bunday iboralar frazeologik qo'shilmalar deyiladi. **Masalan:** „ko'ngli yorishmoq“– “ko'ngli” asl ma'noda “yorishmoq” ko'chma ma'noda qo'llanilgan.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik xususiyatlari birlashib, umumiy hamda ko'chma ma'no beruvchi iboralar frazeologik birlashma (butunlik) deyiladi. Masalan: “*boshi osmonga etmoq*” (*xursand bo'lmoq*).

²³ O'sha manba

²⁴ Sxema muallifga tegishli (B. M.)

FB tarkibida soʻzlarning maʼnolari bilan ibora ifoda etgan maʼno oʻrtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi. Frazeologik chatishmalar qismlarining koʻchma maʼnosi asosida kelib chiqadi va natijada bu koʻchma maʼnolik hozirgi zamonaviy til nuqtai nazaridan tushunarsiz boʻlib qoldi. Frazeologik chatishmalarning obrazlilik faqatgina tarixiy tahlil yordamida ochilishi mumkin. **Masalan:** *“temirni qizigʻida bosmoq”*.

Shunday qilib, frazeologik chatishmalarda asl va koʻchma maʼnolar oʻrtasida aloqa umuman yoʻqolgan boʻlib, koʻchma maʼno ular uchun xos boʻlib qolgan boʻladi. Aynan mana shu sababli frazeologik chatishmalarni boshqa tilga tarjima qilish ancha- muncha qiyinchilik keltirib chiqaradi.

Frazeologik chatishmalar bir qator oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, ular quyidagilar:

1. Ular tarkibidagi soʻzlar chatishmadan tashqari hech qaerda uchramaydi;
2. Chatishmalar tarkibiga arxaizmlar kirishi mumkin;
3. Ular sintaksis jihatdan qismlarga boʻlinmaydi;
4. Koʻp hollarda qismlarining oʻrnini almashtirib boʻlmaydi;
5. Ularda turgʻunlik xususiyati saqlangan, tarkibiga qoʻshimcha soʻzlarni qabul qilmaydi.

Oʻzining mustaqil leksik, (lugʻaviy) maʼnosini yoʻqotib, frazeologik chatishma tarkibiga kiruvchi soʻzlar, murakkab leksik birikma qismlariga aylanadi va maʼnosi alohida soʻzga tenglashadi. Shuning uchun frazeologik chatishmalar alohida soʻzga sinonimik kirisha oladi.

M. Xusainov frazeologizmlar tasnifiga toʻrtinchi guruhni – ideomalarni kiritdi. Oʻzbek frazeologiyasining ilmiy asosda chuqur oʻrganilishi va takomllashuvida Sh. Raxmatullaevning hizmati beqiyos boʻldi. U oʻzining qator tadqiqotlari bilan oʻzbek frazeologiyasiga asos soldi. Olim oʻzbek frazeologizmlar

doirasini ancha toraytirdi va faqat ko‘chma ma’noga asoslangan barqoror birliklarnigina frazeologizmlar tarkibiga kiritdi.²⁵

O‘zbek tilshunos olimlari ham frazeologizmlarni keng talqin qilishda V.V.Vinogradovning qarashlaridan ancha chetga chiqa boshlandi. Natijada frazeologizmlar tarkibiga faqat ko‘chma ma’noli barqoror birikmalarnigina emas, balki tilda oldindan birikma holida mavjud bo‘lib, nutqqa tayyor holda olib kiriladigan barcha barqoror birikmalar kiritila boshlandi. Natijada maqol, matal, hikmatli so‘zlar ham frazeologizmlar sifatida qarala boshlandi.²⁶ Shu tariqa frazeologizmlarni tor hamda keng ma’noda tushunish yuzaga keldi.

Shu va shunga o‘xshash barcha muammoli masalalar bo‘yicha yagona bir fikr mavjud emas. Frazeologiya sohasi ham turli xil qarashlarga ega. Tilshunoslmkning bu sohasida avvaldan ushbu yuqoridagi “tor” va “keng” tushunchalari mavjud bo‘lib, “tor” tushunchasi ma’lum darajada izohli lug‘atlarga leksik birlik bilan barovar kirgan. Shubhasiz, eng avvalo, lug‘atga frazeologizmlar, so‘z ekvivalentlari kiritilgan. Gap modeliga teng turg‘un iboralar esa kiritilmagan.

O‘zbek frazeologiyasining yanada rivojlanishida va muvaffaqiyatlarga erishuvida B.Yo‘ldoshev, A. Mamatov va M.Vafoevalarning hizmatlari ham taxsinga loyiq bo‘ldi. Bu tilshunos olimlar o‘zbek frazeologiyasini o‘ziga xos qirralarini turli xil yondashuvlar asosida yoritib berganlar.

Frazeologizm so‘z singari shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida mavjud bo‘ladi. Frazeologizmlarning shakli uning tashqi tomoni, ko‘rinishi bo‘lib, ifoda plani esa, komponent tarkibi, struktual qurilishi yoki material asosi deb yuritiladi. Frazeologizmning mazmuni esa uning ichki tuzilishi yoki semantikasidir.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi Sh. Rahmatullaev tomonidan asos solingan o‘zbek frazeologiyashunosligi keyingi yillarda anchagina yutuqlarga erishmoqda.

²⁵ <http://google.uz/frazeolgiya/uz/094090>

²⁶ Хусаинов М. Фраzeология прозы писательницы Айдын, АКД, Самарканд, 1989, 24-б.

Bu borada bir qator ilmiy maqolalar, risolalar, nomzodlik dissertatsiyalarini misol tariqasida keltirib o‘tish o‘rinlidir.

A. E. Mamatovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik- frazeologik norma muammolari”(1991), B. Yo‘ldoshevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari” (1994), A. E. Mamatovning “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari ”(2000) nomli doktorlik ishlari shular jumlasidandir. Ayniqsa, Sh.Rahmatullaev tomonidan 1978 yilda yaratilgan “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” esa hozirgacha muhim qo‘llanma sifatida foydalanilib kelinmoqda.

Shunday qilib, frazeologiya lingvistika fanining alohida sohasi sifatida hozirgi paytda yetarli mustahkam mavqeni egalladi desak, xato qilmaymiz. Demak, frazeologiya ham o‘z navbatida kichik- kichik bo‘limlarga bo‘linadi: dialektik frazeologiya, qiyosiy- chog‘ishtirma, tarixiy va boshqalar. Hozirda shu va boshqa barcha bo‘limlar bo‘yicha turli xil tillar materiallari bilan birga samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. So‘nggi yillarda frazeologiya sohasida ko‘zga ko‘rinarli katta va salmoqli ishlar qilindi. Frazeologizmlarga oid ishlarning maqsadlari qatorida semantik, leksik- semantik, morfologik va sintaktik munosabatlar tahlil qilinadi.

Hozirgi vaqtda frazeologizmlarda kamida oltita sinf mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Ularning har biri o‘zida frazeologik tarkibning “o‘zagini”- idiomani namoyon etadi.
2. Murakkab tur ma’nosiga ega bo‘lgan frazeologizm til sistemasining leksik-semantik birligi bilan o‘zining strukturasi bilan ko‘ra bevosita ta’sir ko‘rsatadigan frazeologik birikmadir.
3. Maqol va matallar bir vaqtning o‘zida ham to‘g‘ridan- to‘g‘ri, ham qochirim, kinoya ma’nosiga ega bo‘lgan birliklar.
4. Nutq qolipiga ega birlik.
5. Turli xil rodga taalluqli iboralar v.b.

Ushbu barcha turdagi birliklar ikki xil belgi asosida birlashadilar: bir necha soʻzlilik, yaʼni komponentlilik (alohida tus beradigan) va aks ettirish. Yaʼni ular bir yoki bir nechta soʻzlardan iborat boʻladi va vazifasi esa nutq jarayonida nimanidir aks ettirishdan iborat boʻladi. Demak, yuqoridagilarni jamlasak, quyidagi fikr kelib chiqadi. “Frazeologizm deganda, turgʻun va aks ettiruvchi, alohida tus beriladigan, bir necha komponentlardan tashkil topgan, boʻlinadigan va butun maʼnolarga ega boʻlgan, boshqa soʻzlar bilan muvofiq keladigan til birliklari tushuniladi.”²⁷

1.2.2. Frazeologik birliklarni ifoda va xususiyatiga koʻra ajratilishi

Frazeologiya tilshunoslik fanining muhim bir tarmogʻi sifatida rivojlanishi davomida doimo frazeologik birliklarni aniqlash va tushunish muammo sifatida qolaverdi. Shu paytgacha frazeologik birliklar kriteriyalari qisman oʻrganildi, lekin ular toʻliq oʻrganilmagan va ochib berilmagan. Bu birliklarning kategorial xususiyatlari haqida yagona bir fikr mavjud emas.

Tilshunoslar frazeologik birliklarni ifoda va xususiyatiga koʻra ajratishgan:



28

²⁷ <http://ziyo.net.uz/frazeologiya/uz/896055>

²⁸ Sxema muallifga tegishli (B.M.)

Yuqorida aytib o‘tilganidek, nemis tilshunosligida ham frazeologiya sohasida juda ko‘plab ishlar qilingan. Stepanova, I. I. Chernyashevaning “Hozirgi nemis tilining leksikasi” kitobidagi bir butun bob nemis frazeologiyasiga bag‘ishlangan.

O‘zgarmas frazeologik birliklar turli xil darajadagi tarqalish, turg‘unligi, barqarorligi kabi belgilari bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga yuqoridagi barcha belgilari faqatgina bir o‘zak sohasini ko‘rsatib beradi. Bir- biridan farq qiluvchi mezonlarga ko‘ra, odatdan tashqari turli- tuman tarkibiy qismlari tartibga solinishi mumkin. Bunga rus tilshunosligida ham urinib ko‘rilgan. Ya’ni frazeologiyani bir tilning turg‘un so‘z komplekslari bilan shug‘ullanadigan tilshunoslikka xos yangi fan sohasi sifatida e’tirof etishga urinishgan.

“So‘z kompleksi deganda, so‘zlarning bir- biri bilan bog‘lanishi, ya’ni so‘z gruppasi, predikativ bog‘lanishlar va o‘ziga xos semantik xususiyatga ega bo‘lgan gaplar tushuniladi.”²⁹

Shunday qilib, frazeologizmlar so‘z yasalişining boshqa bir usuli sifatida sintaksis va leksikologiyaning o‘rtasida turadi. Bir tomondan, ular ko‘plab so‘zlardan tashkil topgan sintaktik birikma, boshqa tomondan esa, ularning o‘zak sohasida ideoma, turg‘unlik, o‘zgarmaslik va barqarorlikning leksik xususiyatlari mavjud va shu bilan birga tilning leksema sohasiga taalluqlidir. Bir guruh rus tilshunoslarining mulohazalariga ko‘ra, u bir mustaqil bilimning shunday turg‘un so‘z komplekslarning tadqiqotlarini ajratib ko‘rsatishda kerakdir.

Belgilangan komplekslar analizi leksikologiya yoki sintaksis bo‘limida sodir bo‘lmaydi, chunki u ham leksikologiya ham sintaksis haqidagi maxsus tushuncha va metodlarga extiyojmanti. Shunday ekan, tilshunoslikka oid yangi tizimning frazeologiyani paydo bo‘lishi bu zaruriyatdir.³⁰

²⁹ Stepanova A./Chernesheva I. I. Deutsche Lexikologie der Gegenwartssprache Leipzig, 1975, S.198.

³⁰ Stepanova A./Chernesheva I. I. Deutsche Lexikologie der Gegenwartssprache Leipzig, 1975, S.199

1.2.3. O'zbek tilida frazeologizmlarning hususiyatlari

Rus tilshunosligida bu tasavvur allaqachon o'z tasdig'ini topgandi. 60-yillarning boshlaridan beri turli tillar frazeologizmlarning sinxron analiziga bag'ishlangan alohida yo'nalish paydo bo'ldi: N. N. Amosova ingliz frazeologiyasini yozgan. Nemis tili frazeologiyasi esa, I. I. Chernyasheva tomonidan yozilgan. Frazeologizmlarni tasvirlash uchun qo'llaniladigan uchta asosiy kriteriyalar:

1. Leksikalizatsiya
2. Turg'unlilik yoki barqarorlik
3. Idiomalashish.

Frazeologizmlarning navbatdagi o'ziga xos xususiyatlari ifodalilik va ta'sirchanlikdir. Frazeologizmlar kamida ikkita leksik birlikdan iborat bo'lishi lozim. Katta xajmlilari mavjud emas. Ya'ni gap qolipi darajasida uzun bo'lsa, u frazeologizmga xos tarkibga taalluqli emas. Frazeologizmlarga xos turg'unlik formal, leksik va semantik o'zgarmaslik asosida kelib chiqadi.

Formal turg'unlik deganda, frazeologizmning sintaktik jihatdan qurilmagan xususiyati tushuniladi. Leksik turg'unlik orqali alohida komponentlar almashtirib (o'zgartirib) bo'lmaydigan holat belgilanadi.

Semantik turg'unlik frazeologik ifodani komponent ma'noga ega bo'lgan erkin ma'noga risbatan to'liq ma'noga ega ekanligini anglatadi. Bulardan tashqari psixolingvistik turg'unlik ham mavjud bo'lib, psixolingvistik turg'unlik frazeologizmlarning boshqa leksemalar kabi mustahkam, mukammalligini va qayta ishlab chiqilishi mumkinligini anglatadi. Pragmatik turg'unlikda esa, aniq situatsiyada bo'lgan, bog'langan frazeologizmlarning xususiyatlari tushuniladi.

Barqarorlik bu nisbiy kriteriya bo'lib, unda frazeologizmlar turli xil holatda turlarga ajratilishi mumkin. Bu avvalo, og'zaki kundalik tilda, matbuot tilidgi

tekstlarda (asosan, reklama tilida) va badiiy tekstlarda jumladan, qo‘shiq matnlarida ham ko‘rinadi.³¹

Frazeologik birliklar tilda ko‘p uchraydigan fikrni obrazli, o‘tkir ma’noli va keng qamrovli tarzda ifodalaydigan til birligi sifatida hamma vaqt sostavlidir.³²

Frazeologizmlarning o‘ziga xosligi shundaki, uning yordamida nutqdagi ta’sirchanlikni oshirish mumkin. Frazeologizmlarning shaklanishida uning komponentlari muhim xisoblanadi. Tilshunoslikda frazeologizmlar tarkibidagi leksemalarda o‘zining “xususiy ma’nolari” va “ma’no mustaqilligi” kuchsizlanadi kabi talqinlar mavjud. Bu borada A. I. Smirnitskiy frazeologizmlar komponentlarini leksema deb atash lozimligini, ammo ularni o‘ziga xos holda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.³³ A. V. Kunin frazeologizmlarning komponentlari leksema deb ataladi, ammo ular o‘zining so‘zlik xususiyatlari bilan farqlanadi, degan xulosaga keladi.³⁴

Sh. Raxmatullaev fikricha, frazeologizmlarni tashkil etagan komponentlari o‘zining xususiy ma’nolarini saqlab qolishi va ularning tayanch hamda notayanch komponentlar sifatida talqin qiladi.³⁵

M. Umarxo‘djaev frazeologizmlar komponentlarining ma’nolari ma’lum darajada kuchsizlanadi, semantik «darmonsizlanish» yuz berishini e’tirof etishi bilan birga ularni leksemalar deb atashni ma’qul ko‘radi.

Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq leksemadan tashkil topgan bo‘lib, ular mustaqil yoki yordamchi so‘z turkumlariga tegishli bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida *podadan oldin chang chiqarmoq, otning qashqasiday, ko‘zini shamg‘alat qilmoq* va boshqalar. Demak, leksemalarning o‘zaro uyushmasi asosida bog‘lanish yuzaga

³¹ <http://google.uz/frazeolgii/uz/094090>

³² Маматов А. Фразеологик стилистика масалалари Т.: Укитувчи, 1991, 18- б.

³³ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка М.: Просвещения, 1956, С. 207

³⁴ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка Л.: Просвещения, 1965, С. 71

³⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фразеологизмларининг боғлашуви Т.: Комуслар бош тахририяти, 1992 6-б.

keladi. Leksemalarning o‘zaro uyushishi esa, sintaktik bog‘lanish orqali ro‘y beradi.

Bunday sintaktik bog‘lanish barcha bog‘lanmalarga teng bo‘lib, bog‘lanmalarning o‘zi esa, birikma va gaplar tarkibida mavjud bo‘ladi. Frazeologizmlar ham bog‘lanmalardan tashkil topadi. Shu bilan birga frazeologizmlar ko‘chma ma’noli, obrazlilik xususiyatlariga ega. Aynan mana shu xususiyat ularni boshqa so‘z birikmalaridan ajratib turadi. Shuning uchun ham turg‘un bog‘lanmalar o‘zining ma’no mundarijasiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. To‘g‘ri ma’noli turg‘un bog‘lanmalar.
2. Ko‘chma ma’noli turg‘un bog‘lanmalar.³⁶

Bu ikki guruh bir- biridan ma’no xususiyatiga ko‘ra farqlanadi. Birinchi guruhdagi turg‘un bog‘lanmalar faqatgina narsa va hodisalarini ataydi, ya’ni nominativ vazifasini bajaradi. Ikkinchi guruhdagi turg‘un bog‘lanmalar esa, narsa va hodisalarni obrazli, ko‘chma ma’noli tarzda ifodalaydi hamda tasvirlaydi. Aynan mana shunday bog‘lanmalar frazeologizmlardir.

Frazeologik birliklar tushunish qiyin bo‘lgan semantik strukturaga ham ega. Frazeologik birliklarning asosiy kuchi shunday butun til birliklari ko‘rinishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Haqiqatdan ham ko‘plab frazeologik birliklarda bunday tushunib bo‘lmaydigan struktura kuzatilmaydi, aksincha ular butun ifoda kabi namoyon bo‘ladi. Frazeologik birliklarning mavjud belgilari, ularning yuqori darajadagi barqarorligi komponentlarining doimiy yoki aniqlangan tartibini o‘zida mujassamlashtiradi. Frazeologik birliklarning komponentlari aniq shaxs-son bilan birga, “so‘z qatorini” aniq mantiqiylikda namoyon bo‘lishini taqozo etadi. Komponentlar tartibining o‘zgarishi frazeologik birliklarni buzib yuborishi yoki ularni umuman boshqa so‘z birikmasiga aylantirib yuborishi mumkin. Ba’zan frazeologik birikmalarning komponentlari tartibi bir necha turdagi o‘zgarishlarga olib keladi.³⁷

³⁶ Турсунов А. ва бошқалар Ҳозирги ўзбек адабий тили Т.: Укитувчи, 1980, 57-б.

³⁷ <http://google.uz/frazeolgii/uz/094090>

FBlar komponentlarining turg'unlik tartibi va ular joylashuvining o'zgarishi asosida kommunikativ ma'no yotadi. FBlar orasidagi sintaktik aloqa sezilarli darajada saqlanadi, komponentlar tartibining saqlanishi va o'zgarishi kommunikativ istak-hohish bilan birga munosabatda nutqda namoyon bo'ladi. FBlar turg'unligining muhim omillari o'zgarimas grammatik shakl va ularning komponentlari bo'lib chiqadi. Frazeologik shakllarning o'ziga xosligi FBlarning cheklangan pragmatik va sintagmatik imkoniyatlari mustaqil so'z birikmasi bilan qiyoslaganda namoyon bo'ladi. Komponentlarning grammatik xususiyatlarini yo'qolishi aniq sintaktik konstruksiya ramkasida qotib qolgan FBlar bilan barobor ro'y beradi. FBlar komponentlari shaklni yuzaga keltirishda qisman yoki to'liq ajratiladi.

Shunday qilib, FBlarning kategorial belgi kabi barqarorligi go'yoki uning komponentlariga qarama-qarshi xarakterga ega. Bu so'z prototiplari bilan komponentlarning aloqasi boshqa FBlar kategorial belgilarini, ularning alohida tus berilishini namoyon etadi. Alohida tus berish, bo'yoqdorlik FBlarning o'ziga xos xususiyati, ularning komponentlarining doimiy aktualizatsiyasi nutqda so'zning statusini belgilab beradi. FBlarning har bir komponentlari aniq leksik-grammatik shaklga ega va grafikaga oid bo'lgan yaxlitlikni o'zida mujassamlashtiradi.

Ma'lumki, FBlardan anglashiladigan ma'no ular tarkibidagi so'zlarga xos leksik ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, ustama ma'no sifatida, shu bilan bir vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. Har ikki holatda ham FB tarkibidagi leksemalar o'z mustaqilligini yo'qotadi. Barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham frazeologiya sohasida anchagina ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek tilshunos olimlari frazeologizmlarning o'ziga xos turli jihatlarini ochib berishga intilishmoqda.

Yuqorida berib o'tilgan frazeologik ta'riflardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin. Tilshunoslikning frazeologiya bo'limi nutqimizni eng serjilo, ta'sirchan va mazmundor qilib turgan o'zgarimas turg'un birikmalarni o'zganuvchi bo'limidir. Frazeologiya fani ham boshqa fanlarda bo'lgani kabi tilshunoslikning

turli bo'limlari bilan o'zaro aloqada o'rganishni talab qiladi. Chunki uning o'rganish ob'ekti hisoblanmish turg'un so'z birikmalari tarkibidagi leksemalar tilshunoslikning leksikologiya bo'limida o'rganiladi. Ana shu leksemalarning ma'nolarini farqlash esa, semantika bo'limi bilan bog'liq. Shu tariqa frazeologiyaning o'rganish ob'ektlarini chuqur taxlil qilishga to'g'ri kelsa, ularning boshqa bo'limlar bilan bo'lgan aloqalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Frazeologik birliklar shu qadar o'ziga xos murakkabki, ularni o'rganish jarayoni tilshunoslikning boshqa bo'limlariga murojaat qilishni taqozo etadi.

Nemis frazeologizmlari bir qancha olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan va uning o'ziga xos xususiyatlari turli xil aspektlar asosida yoritib berilgan. Jumladan, struktur, semantik, sintaktik, stilistik, morfologik, funksional va boshqalar.³⁸

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, nemis tilida bo'lganidek, o'zbek tilida ham frazeologiya sohasida turli xil tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham yosh ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ko'zga ko'rinarli darajada ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Zero, frazeologiya sohasi o'zbek tilining ham boy til me'yorini sanaladi va u kundalik hayotimizda hamda badiiy asrarlardagi boy estetik ruhni berishda asosiy vositalardan biridir. Shu asnoda, frazeologiyaning o'zbek tilida ahamiyati, uni o'rganishga bo'lgan mezonlar ko'pchilikni tashkil etadi.

³⁸ <http://google.uz/frazeologiya/uz/094090>

II BOB. TILSHUNOSLIKDA SINONIMIYA MASALALARI

2.1. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA SINONIMIYA HODISASI, HAMDA NEMIS TILSHUNOSLARINING SINONIMIYAGA DOIR NAZARIYALARI

2.1.1. Nemis va o'zbek tillarida sinonimiya hodisasi

Qaysi bir tilning, jahon tillari orasida eng go'zal va ravon til deb atalishi va tan olinishi uchun, eng avvalo o'sha tilning kuchli so'z zahirasi bo'lishi lozim, ana shundagina o'sha tilning xalqlar orasida ahamiyati yanada ortib boradi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, tillarning bir me'yorda ravon bo'lishiga, eng avvalo ma'nodosh so'zlarning ahamiyati juda katta. Bir matnda bir so'zning takror va takror qaytalanishi gapning bo'yoqdorlik hususiyatini tushirib yuboradi va gap o'z ta'sirchanligini yo'qotadi. Ma'nodosh so'zlar ya'ni sinonimlar haqida gap ketganda dastlab "Sinonimiya" sohasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Tildagi sinonimiya hodisasi umumiy tilshunoslikning semantika, ya'ni so'zning ma'nosiga oid masalalardan biridir. Semantika atamasining o'ziga umumiy tilshunoslikda shunday ta'rif beriladi: "Semantika – (yunon. semantikos – belgilovchi, bildiruvchi) – so'z, so'zning bir qismi, so'z birikmasining ma'no tarafidir."³⁹ Demak, semantika – tilshunoslikning so'zlarning ma'nosini o'rganuvchi maxsus bo'limidir.

Sinonimlarga kelsak, o'zbek tilining izohli lug'atida sinonimlar va sinonimiya hodisasiga shunday ta'rif berilgan: "Sinonim so'zi yunonchadan olingan bo'lib, shakl va talaffuzi turlicha, ammo ma'nosi bir- biriga juda yaqin so'zlar, o'zaro ma'nodosh so'zlarga aytiladi. Sinonimiya hodisasi ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarning shakl jihatidan turlicha bo'lishidir".⁴⁰

³⁹ Словарь иностранных слов. – Москва, Русский язык, 1980. – с. 458

⁴⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Москва, "Рус тили" нашриёти, 1981. - 52 б.

Sinonimiya (yunoncha synonymia – maʼnodosh) – turli aytilish va yozilishga ega boʻlgan til birliklari boʻlib, mazmuni butunlay yoki qisman toʻgʻri kelishi hodisasidir. Leksik sinonimlar – har xil aytilish va yozilishga ega boʻlgan nutqning bir boʻlak soʻzidir, lekin bir- biriga yaqin yoki mazmuni bir-biriga toʻgʻri keladigan soʻzlardir. Sinonimlar muammosi – muhim leksikologik muammolardan biridir. XVIII asr oxiridayoq tilda bir tushunchani bildiradigan bir qancha soʻzlar boʻlishi mumkinligi haqidagi masala muhokama etilgan. XIX asr birinchi yarmida filologlar “maʼnodosh”, yaʼni mazmun jihatidan bir- biriga toʻgʻri keladigan soʻzlar tilda boʻlishi mumkin emas, deb oʻylashgan va sinonimlarni “oʻxshash belgisi”, “mazmuni boʻyicha oʻxshash” soʻzlar sifatida belgilaganlar, soʻzning maʼlum bir uslubi (“boʻgʻini”) ga kiruvchi ekspressiv xususiyatini eʼtiborga olganlar. XX asr birinchi yarmida G.O.Vinokur jonli nutqda “ot yoki yilqi, bola yoki farzand deyilishini farqi boʻlmagan holatni topib boʻlmaydi”⁴¹ degan.

Umumiy tilshunoslikda sinonimiya boʻyicha olib borilgan tadqiqot ishlarini koʻrib chiqar ekanmiz, dunyo olimlari sinonimiya hodisasini koʻproq rus, ingliz va nemis tillari misolida koʻrib chiqishganligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Sinonimiya hodisasi dunyoning barcha tillarida keng yoyilgan bir hodisa boʻlganligi bois, bu hodisa muhokama qilinib va chuqur ilmiy tahlillar olib borilgan asarlar talaygina. Lekin shunga qaramay, uzoq yillar dunyo miqyosida olib borilgan yuzlab tadqiqotlar masalaga oxirgi nuqtani qoʻymagan.

Shunday qilib, sinonimlar oʻxshash mazmunli emas, balki bir- biriga yaqin soʻz sifatida tushunilgan, shu bilan birga sinonimlarning aynan oʻzaro farqi tilda ular hayotining tayanchi sifatida tan olingan. Baʼzi zamonaviy leksikologlar, aksincha, sinonim soʻzlarga faqat oʻz mazmuniga koʻra oʻxshash va stilistik tavsiflari farqlanadigan (har doim emas) soʻzlarni kiritish taklifi bilan chiqdilar. Sinonim soʻzlarning mazmuni yoki butunlay bir-biriga toʻgʻri keladi, yo katta umumiy qismga (bunda sinonim soʻzlarning “mazmun yaqinligi” koʻzda tutiladi)

⁴¹ Винокур Г. О. Проблема культуры речи. Русский язык в советской школе. - М.: 1929. № 5. - с. 85

ega. Sinonimlarni aniqlashda ma'no-mazmun mezonlari odatda, mazmun uyg'unligi tahlili bilan to'ldiriladi: qator matnlarda sinonimlar o'rtasidagi mazmun farqi xiralashadi, bilinar-bilinmas holatga keladi va bunday matnlarda (ularni "neytral qiluvchi" deb ataydilar) so'zni aytilgan umumiy ma'nosini o'zgartirmasdan o'zaro almashtirish mumkin: *Bola qumda kurak bilan chuqurcha kavradi (qazidi)*.⁴² Biroq, odatda, barcha matnlarda ham bunday almashtirish mumkin emas: *Yumronqoziq shudgorda yer qazidi (kovradi emas)*. Bu narsa ko'pincha so'z ma'nolari o'rtasidagi farqlar bilan bog'liqdir. Masalan, *qazimoq* – bu "*asbob yordamida qazimoq*" bo'lgani sababli kavlamog so'zini emas, balki hayvonlar uchun faqat *qazimoq* so'zini qo'llash mumkin. O'zaro o'zgartirish mezoni faqat mazmun mezonini to'ldiradi va o'z-o'zidan sinonimni aniqlashda yetarli hisoblanmaydi. Qator matnlarda o'zaro o'zgartirilgan so'zlar borki, ular sinonim bo'la olmaydilar. Masalan, zot- tur munosabatlarini bildiruvchi (*daraxt – sarv, it – tozi, qush – chumchuq*), bir butunlik va qisman bildiruvchi so'zlar (*yo'lak – uy, soch – bosh*) sinonim bo'la olmaydilar. Chunonchi, sinonimlarni tavsiflaganda ularning uyg'unligini e'tiborga olish kerak bo'lib, ular bir- biriga butunlay (*qandaydir bir narsani otmoq – irg'itmoq*), yoki qisman (*uzoq nigoh, suhbat, davr, tanaffus; davomiy suhbat, davr, tanaffus*) to'g'ri kelishi mumkin.

2.1.2. Nemis va o'zbek tilida sinonimlarning turlari

Sinonimiya til birliklarining o'zaro ma'no umumiyliги va yaqinligiga ko'ra yuzaga keladi va unda ikki va undan ortiq til birliklarining o'zaro ma'no munosabati mavjud bo'ladi. Bunda grammatik birliklar ham, lug'aviy birliklar ham sinonimik aloqaga kirisha oladi.

I Lug'aviy sinonimiya. Bunda leksik hamda frazeologik birliklarning o'zaro uch xil sinonimik munosabatlari ko'zda tutiladi.

⁴² Ona tili. 10-11-sinf. Darslik. – T.: O'qituvchi, 1997, 23- b.

Leksik sinonimiya: Sinonimlar sinonimik ma'nolarni ifodalashda asosiy vosita bo'ladi. Odatda, *yuz* so'zi *aft*, *bashara*, *chehra*, *jamol* so'zlariga sinonimdir, ammo so'zlovchi *aft*, *bashara* so'zlari orqali o'zining salbiy munosabatini, *chehra*, *jamol* so'zlari orqali esa ijobiy munosabatini izhor qiladi. Ular garchand bir umumiy ma'noni bildirsalar ham, lekin ularning ma'no darajasi huddi yuqoridagi misollarda ko'rganimiz kabi, ijobiy yoki salbiy bahoga egadir va ma'lum uslubga hoslanishi bilan bir- biridan farqlandi. Nutqda esa so'zlovchi o'zining fikriga mos ravishda ma'nolardan birini tanlab qo'llaydi.

Frazeologik sinonimiya: Bunda iboralarning o'zaro sinonimik munosabati va aloqasi kuzatiladi. **Masalan:** Shavkat Rahmatullaevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da "yo'lga tushmoq" iborasining bir qancha ma'nodoshlarini uchratish mumkin: *yo'l olmoq*, *ravona bo'lmoq* va b.

Leksik- frazeologik sinonimiya: Leksik- frazeologik sinonimiya lug'aviy sinonimiya tarkibidagi biroz murakkabligi bilan ajralib turadi. Bunda so'z bilan iboraning o'zaro sinonimik aloqasi kuzatiladi. Masalan: *yuragi yorildi*, *o'takasi yorildi* – *qo'rqdi*.

II Grammatik sinonimiya. Bu shunisi bilan sinonimiya sohasida ahamiyatliki, bunda o'zaro sinonimik munosabatga gramatik birliklar kirishadi. Ya'ni: *qo'shimchalar*, *so'z birikmalar* va *boshqalar*.

O'z navbatida grammatik sinonimiya ham turlarga bo'linadi.

Morfologik sinonimiya – o'zaro sinonimik munosabatga morfologik birliklar kirishadi. M: *qo'shimchalar* sinonimiyasi: *sersoqol*, *soqoldor*; *kelyapman*, *kelayotirman*, *kelmoqdaman*.

Sintaktik sinonimiya – o'zaro sinonimik munosabatga sintaktik birliklar kirishadi: *ukamga oldim* – *ukam uchun oldim*; *telefonda gaplashdim* – *telefon orqali*

gaplashdim. Barcha tillarda jumladan nemis va o'zbek tillarida eng ko'p uchraydigan sinonimlar **leksik sinonimlar** hisoblanadi.

bei Substantiven (otlarda)(Hauptwörter):

Auto → *Fahrzeug, Kfz, Personenwagen, Gefährt usw.*

Essen → *Mahlzeit, Dinner, Bankett usw.*

Geld → *Währung, Zahlungsmittel, Banknoten*

bei Verben (fe'llarda)(Tätigkeitswörter):

sagen → *reden, sprechen, artikulieren, von sich geben, bemerken usw.*

gehen → *sich fortbewegen, spazieren, wandern, schlendern, trotten usw.*

schreiben → *anfertigen, aufschreiben, abfassen, formulieren, verfassen usw.*

„*Wir gingen die Straße entlang.*”

„*Wir spazierten die Straße entlang.*”

bei Adjektiven (sifatlarda) (Eigenschaftswörter):

schnell → *rasend, flink, flott, rasch, fix, stürmisch, rapide usw.*

gut → *ausgezeichnet, lobenswert, einwandfrei, prima, nicht schlecht, tadellos usw.*

kalt → *eisig, frostig, frisch, kühl, bitterkalt usw.*⁴³

Sinonim soʻzlar ayni bir birlashtiruvchi maʼnoga ega boʻlishi bilan birga quyidagi jihatlariga koʻra farqlanib turadi:

maʼno qirrasiga koʻra

uslubiy jihatiga koʻra

nutqiy xoslanishiga koʻra.

44

⁴³<http://google.de/synonyme/de/72514/de>

Shunga ko‘ra sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Ideografik sinonimlar. Bu turdagi sinonimlar o‘zaro ma’no qirrasiga ko‘ra farqlanadi. **Masalan,** *aniq, ravshan, yorqin* so‘zlari bir sinonimik qatorga birlashsa ham, ma’no qirralariga ko‘ra farqlanadi: *Aniq fikr, ravshan fikr, yorqin fikr.* Bu misollarda belgi darajasi aniqqa nisbatan ravshanda, ravshanga nisbatan yorqinda kuchlidir.

2. Uslubiy sinonimlar. Bu turdagi sinonimlar o‘zaro uslubiy baho bo‘yoqdorligi jihatidan farqlanadi. **Masalan,** *gavdali, jussali, barvasta, norg‘ul, qomatdor, barzangi.* Bo‘yoqdorlik darajasi gavdalida neytral, jussali, barvasta, norg‘ul, qomatdorda ijobiy bo‘yoqqa ega, barzangida salbiy bo‘yoqqa ega.

3. Nutqiy sinonimlar. Bu turdagi sinonimlar o‘zaro nutqiy xoslanish belgisiga ko‘ra farqlanadi. **Masalan,** *nur* – umumnutqqa xos, *yog‘du* – badiiy nutqqa xos so‘z; *yana* – umumnutqqa xos, *tag‘in* – so‘zlashuv nutqiga xos.

4. Kontekstual sinonimlar. Sinonimiya til birliklari orasidagi munosabat asosida tug‘iladi. Leksik qo‘llash asosida sinonimiya hosil bo‘lmaydi. Chunki leksik qo‘llash leksik ma’no deb qaralmaydi. Leksik ma’no bilan leksik qo‘llash orasidagi sinonimik munosabat kontekstual sinonimlar deb nomlanadi. **Masalan,** *adib, yozuvchi, avtor* sinonimik qatori ma’lum kontekstda “*Oybek*” atoqli otiga kontekstual sinonim bo‘ladi.

5. Absolyut sinonimlar. Har jihatdan bir- biriga teng bo‘lgan sinonimlarga aytiladi. **Masalan,** *surat- rasm, so‘roq- savol, xabar- darak, agitatsiya- tashviqot, tema- mavzu.* Bunday sinonimlar leksik **dubletlar** deb ham yuritiladi.

2.1.3. Nemis tilshunoslarining sinonimiya hodisasiga bergan ta’riflari

Sinonimiya hodisasi qanday xodisa va ularga berilgan tariflar qanday? Quyida nemis olimlari ta’riflariga to‘xtalib o‘taylik: Sinonimiyaga semantik hodisa sifatida “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida” shunday ta’rif beriladi: “Til

⁴⁴ Sxema muallifga tegishli (B. M.)

birliklarining (so'zlar, iboralar va boshqalar) bir xil denotativ ma'noga ega bo'lishi asosidagi guruhlanishiga **sinonimiya** deyiladi."⁴⁵

Ushbu fikrga yaqin ta'rifni biz G'. Abdurahmonov va H. Rustamovlarning "Ona tili" kitobida ham kuzatishimiz mumkin. Unga ko'ra: "Sinonimiya uslubning bir turi bo'lib, asosiy ma'noga qo'shimcha uslubiy ma'nolarni (konnotativ) ifodalash uchun qo'llanadi."⁴⁶

Shu o'rinda sinonimiyaga nemis tilshunos olimlari qanday ta'rif berganini ko'rib chiqsak: **Synonymie** (griech. syn-onymia, Gleichnamigkeit/auch Äquivalenz) Semantische Relation der Bedeutungsgleichheit (bzw. Bedeutungsähnlichkeit) von zwei oder mehreren sprachlichen Ausdrücken. In Lexikologie, Grammatik oder Stilistik seit jeher kontroverser Begriff, der in Abhängigkeit von verschiedenen Semantiktheorien verschieden definiert wird. Generell ist zu unterscheiden:

Totale S. (auch: totale, strikte S.): Totale S. setzt per definitionem uneingeschränkte Austauschbarkeit der betreffenden Ausdrücke in allen Kontexten voraus und bezieht sich sowohl auf denotative als auch konnotative Bedeutungselemente. z. B: anfangen- beginnen.⁴⁷ **Ya'ni:**

Sinonimiya- grekcha „synonymie“, bir nomlilik, ekvivalentlik degan ma'nolarni anglatadi. Ikki va undan ortiq til ifodalarining ma'no jihatdan o'xshashligi. Sinonimiya masalasi Leksikologiyada, Grammatika yoki Stilistikada oldingi davrlardan buyon turli xil semantik nazariyalar asosida talqin etilgan bo'lsa- da, bugunga qadar baxs- munozaraga sabab soha hisoblanadi. O'z navbatida ular turlarga bo'linadi:

Mutloq S. (yoki absolyut, batamom S.) Mutloq sinonimlar hech qanday chegaraga ega bo'lmay, barcha turli xil matnlarda denotativ va konotativ jihatdan mutloq teng bo'ladilar. M: anfangen- beginnen.⁴⁸

⁴⁵ Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: O'z. mil. ensiklopediyasi, 2002, 87- b.

⁴⁶ Abdurahmonov G'. Rustamov H. Ona tili. T.: O'qituvchi, 2004, 82- b.

⁴⁷ Bußmann H. Lexikon der Sprachwissenschaft Stuttgart, Alfred Kröner Verlag, 2002, S. 673

⁴⁸ Tarjima bizniki B.M.

Yuqorida biz, nemis olimi H. Bussmanning sinonimiyaga bergan ta'rifini kuzatdik, endi esa ya'na bir nemis tilshunos olimi Rudi Konradning fikrlariga nazar tashlasak:

Synonymie: Erscheinung der Gleichheit oder Ähnlichkeit der Bedeutung bei unterschiedlicher Bezeichnung. Die Bedeutungen von Synonymen sind meist nur teilweise, seltener völlig gleich.

S., syntaktische: Bedeutungsgleichheit unterschiedlicher syntaktischer Konstruktionen: *Er befahl den Rückzug- Er befahl, sich zurückziehen.*⁴⁹

Sinonimiya- bu turli xil ifodalardagi ma'nolarning o'xshashligi va tengligi demakdir. Sinonimlarning ma'nolari ko'pgina holatlarda qisman yoki kamdan-kam mutloq ravishda o'xshash bo'ladi. Masalan, uslubiy sinonimlarni olib ko'raylik:

Uslubiy s. Bunda turli xil sintaktik qurilishlarda bir xil o'xshash ma'nolarni ko'rish mumkin. *Er befahl den Rückzug- Er befahl, sich zurückziehen.*⁵⁰

Shu o'rinda albatta sinonimiyadan farqli ravishda sinonimga berilgan ta'riflarga ham e'tibor qartsak: "Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi."⁵¹

2.1.4. Sinonimlar haqida rus hamda Yevropa tilshunoslari fikrlari va izlanishlari

Sinonimlar haqida, shuningdek, rus va Yevropa tilshunoslari tomonidan ham salmoqli tadqiqotlar olib borilgandir. Bunda, ayniqsa, rus tilshunoslarining hissasini e'tirof etish muhimdir. A. A. Braginaning yozishicha: *"Мы принимаем за основу синонимию близость значений, выражающих оттенки одного"*

⁴⁹ Konrad R. Lexikon sprachwissenschaftler Termine Leipzig, VEB, 241

⁵⁰ Tarjima bizniki B. M.

⁵¹ Nurmonov A., Sobirov A. Hozirgi o'zbek tili T.: Ilm ziyo, 2010, 73- b.

понятия. Так выдвигается на первый план дифференцирующая роль синонимов, выделяется не только общее в значении синонимических слов, но и еще более важные различительные признаки каждого из синонимов”⁵², ya’ni “Biz sinonimlar uchun asos deb bir tushunchaning turli ko‘rinishlarini ifodalovchi ma’noviy yaqinlikni hisoblaymiz. Shunday holda sinonimlarning farqlash funksiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi, sinonim so‘zlarning faqat umumiy ma’nosi emas, balki har bir sinonimik so‘zning muhim farqlovchi xususiyatlari yuzaga chiqadi.”

Н. М. Карамзин esa sinonimlarni tilning boyish manbai deb hisoblaydi: “Богатый язык тот, в котором вы найдете слова не только для означения главных идей, но и для изъяснения их различий...”⁵³, ya’ni “Qaysi tilda faqat asosiy g‘oyalarni zikr etish uchun emas, balki ularning farqlarini ham izohlab beruvchi so‘zlarni topa olsangiz, bilingki, o‘sha til boydir...”

Rus tilshunoslari ichida aynan sinonimlar haqida ilmiy tadqiqot olib borgan tilshunoslar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardan Z.A. Aleksandrovaning “Словарь синонимов русского языка”, А. А. Брагинанинг “Синонимы в литературном языке”, А. Д. Grigorovning “Заметки о лексической синонимии” kabi ilmiy tadqiqot ishlarni alohida qayd etish lozim.

Yuqorida sanab o‘tilgan ba’zi tilshunoslar va boshqa ko‘pchilik tilshunoslarning fikricha, sinonimlar shunday so‘zlarki, ular bir tushunchani (moslashuv to‘liq yoki qisman bo‘lishi mumkin) ifodalaydi, lekin turli ifoda predmetiga ega bo‘ladi. Mazkur fikrni yoqlovchi tilshunoslarga M. I. Fomina, R. A. Budagov, А. А. Bragina, А. Р. Yevgenyeva, V. I. Koduxov, D. E. Rozental, N. M. Shanskiy, R. N. Popov, N. G. Goltsova, T. I. Vendina, Z. Y. Aleksandrova, L. A. Bulaxovskiy, M. F. Palevskaya, D. N. Shmelevlarni kiritish mumkin.

А. А. Reformatskiy va А. I. Yefimovlarning fikriga ko‘ra, tilda ma’no

⁵² Брагина Л. А. Синонимы и их истолкование. – Вопросы языкознания. - М.; 1978, № 6, - с. 65

⁵³ Карамзин Н. М. О богатстве языка. — Избранные сочинения: В 2-х т., Т. 2. - М.; Л.: 1964, - с. 142

jihatdan bir xil soʻzlar mavjud emas.⁵⁴ A. D. Grigoryevaning fikricha esa faqat maʼnoviy aynan oʻxshashlik (maʼno yaqinligi emas) soʻzlarni sinonim sifatida qabul qilishga imkon beradi. Bunday qarashlar, oʻz navbatida, bir- birini inkor etmaydi, balki toʻldiradi, bu orqali sinonimiya hodisasi mohiyatining chuqur anglanishiga imkon yaratadi.

Y.Y. Sidelnikovaning “Hozirgi zamon sinonimiyasi” maqolasida sinonimlarning quyidagi xususiyatlarga ega boʻlishi lozimligini taʼkidlaydi:

- *Синонимы в узком смысле слова должны иметь в словаре одно и то же толкование, т. е. переводиться в одно и то же выражение семантического языка, отражать одно и то же понятие, предмет или явление;*

- *Должны иметь одинаковое число активных семантических валентностей;*

- *Должны принадлежать к одной и той же (глубинной) части речи;*

- *Все участники одного СР должны быть синонимичны друг другу, однако это не обязывает их быть взаимозаменяемыми в речевых оборотах.*⁵⁵ **Yaʼni:**

- *Sinonimlar tor maʼnoda, lugʻatda bir xil izohlanishi lozim, yaʼni bir xil tarjima qilinishi, bir tushuncha, predmet yoki hodisani ifodalashi lozim;*

- *Bir xil miqdordagi faol semantik valentlikka ega boʻlishi lozim;*

- *Bir grammatik kategoriyaga oid boʻlishi lozim;*

- *Bir sinonimik qatordagi barcha sinonimlar oʻz navbatida bir-biriga sinonim boʻlishi kerak, ammo bu ular ogʻzaki nutqda ham bir-birining oʻrniga ishlatilishiga kafolat bermaydi.*⁵⁶

Sinonimlarning tasniflashda asosan ularning ikki xususiyati – farqlovchi va differensiyalovchi (darajalovchi) xususiyatlariga tayaniladi. Aynan mana shu

⁵⁴ Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1995. – с. 62–66

⁵⁵ Сидельникова Е.Ю. Синонимия наречий, Дальневосточный федеральный университет, 2008

⁵⁶ Семантик valentlik – sintaksisda soʻzning boshqa elementlar bilan sintaktik munosabatga kirishish qobiliyatidir (ru.wikipedia.org)

xususiyatlarga ko‘ra sinonimlar uch turga bo‘linadi: mazmuniy- belgili, hissiy- uslubiy va funksional- uslubiy sinonimlar.

O‘zbek tilshunosligida ham sinonimlar tahlili bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilgan va olib borilmoqda. O‘zbek tilshunosligida alohida yozma yodgorlik tili bo‘yicha yaratilgan birinchi sinonimik lug‘at “Boburnoma”da qo‘llanilgan sinonimlar lug‘ati” hisoblanadi. Lug‘at Mirzaahmad Olimov tomonidan tuzilgan bo‘lib, lug‘at ichida sinonimik qator hosil qilgan alohida so‘zlarning lisoniy mansubiyati, grammatik shakllari, uslubiy bo‘yog‘i kabilar haqida e‘tiborga molik fikrlar bildirilgan. Bundan tashqari sinonimlar, umuman o‘zbek tili lug‘atshunosligiga katta hissa qo‘shgan tilshunoslardan f.f.n. Ergash Umarov, akademik Azim Hojiyev, f.f.n. Olim Usmon, f.f.n. Zokir Ma‘rupov, f.f.n. Abduvahob Madvaliyev kabi olimlarni keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, sinonimlar til lug‘at boyligining muhim qismini tashkil etib, ular shakl va talaffuzi turlicha, ammo ma’nosi bir- biriga juda yaqin so‘zlar, o‘zaro ma’nodosh bo‘lgan so‘zlardir. Sinonimiya hodisasi ma’nosi bir- biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarning shakl jihatidan turlicha bo‘lishidir. Shuningdek, tilshunoslikda sinonimiya o‘ta ahamiyatli va murakkab sohani tashkil etadi. Ularning tilda bejizga ahamiyati katta emas. Zero ular, fikrni aniq, maqsadga muvofiq ifodalash uchun xizmat qiladi. Bulardan tashqari, ular tilimizni ravon va bo‘yoqdor qilishga ko‘mak beradi.

2.2. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLAR- NING TURLARI VA HUSUSIYATI

2.2.1. Frazeologik sinonimlarning o'rganilish tarixi

Dunyo tillari orasida tilni ravon qilishga, uni yanada bo'yoqdor qilishga bir qancha til birliklari mavjud. Bulardan biri iboralar bo'lib, ular tilni yanada go'zalroq qilishga ko'mak beradi. Shuningdek, frazeologizmlar chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda nutqqa alohida ko'rk, tarovat bag'ishlaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o'zi yo'q, hususan biz tahlil qilayotgan o'zbek va nemis tillari frazeologiyasi ham juda boy va o'zining ko'p asrlik tarixiga ega.

Frazeologik sinonimiya masalasiga ayniqsa, Y. D. Apresyan chuqur yondoshgan. Olim frazeologik sinonimiyani belgilovchi o'lchovlar sifatida iboralarning ma'nosi, sintaktik funktsiyasi, sintaktik formasi, kontekstual hoslanish kabilarni kiritadi.⁵⁷

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham ko'p mikdorni tashkil etadi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib ham bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolikni teng ma'nolik deb tushunib bo'lmaydi. Xar bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi. Huddi shu fikrni nemis olimi W. Flaysher ham tasdiqlaydi.

„Unter phraseologischen Synonymen werden Phraseologismen verstanden, die mindestens in den wesentlichen Bedeutungsmerkmalen übereinstimmen. Sie können sich in sekundären Bedeutungsmerkmalen, in der stilistischen Markierung, in der syntaktischen Konstruktionsweise durch aus unterscheiden“.⁵⁸

⁵⁷ Апресян Ю. А. Фразеологические синонимы типа глагол-существительное в современном английском языке М.: Просвещения, 1976, С.5

⁵⁸ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache Leipzig, 1982, S. 182

Undan tashqari, W. Flaysher frazeologik sinonimlarda turli xil qatlamlar mavjudligini, hamda ular kuchli semantik ma'no berishini ta'kidlab o'tadi. „Bei Phraseologischen Synonymen treten verschiedene Grade der Synonymie auf, die an mehr oder weniger starke semantische Differenzierungen gebunden sind.“⁵⁹

„Phraseologische Synonyme sind Phraseologismen, die mindestens in den wesentlichen Bedeutungsmerkmalen übereinstimmen. Sie können sich in sekundären Bedeutungsmerkmalen, in der stilistischen Markierung, in der syntaktischen Konstruktionsweise durchaus unterscheiden.“⁶⁰

Yana shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, nemis tilidagi frazeologik sinonimlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular mazmunan o'zaro teng bo'lgan sinonimlar guruxidan iborat bo'ladi.

2.2.2. Frazeologik sinonimlar tizim va komponentlar, semantik va stilistik o'zaro aloqaga ko'ra hamda uslubiga ko'ra farqlanishi

Frazeologik sinonimlar birinchidan tizim va komponentlar o'rtasidagi farqqa asosan, ikkinchidan esa, frazeologik birliklardagi semantik va stilistik o'zaro aloqaga asosan va uchinchidan, ularning tilda vujudga kelishi uslubiga ko'ra farqlar kuzatiladi.

Komponentlarning to'la mosligini va bitta yoki bir nechta o'zgaradigan komponentlardan tashqari leksik tarkiblarining deyarli to'laligicha o'xshashligini aks ettiruvchi frazeologik sinonimlar tizimli sinonimlar deb yuritiladigan bo'ldi. Frazeologik sinonimlarning semantik, stilistik, funksional jixatlardan teng axamiyatga egaligi xam turli tizimdagi, xam bir xil tizimdagi birliklarga xos bo'lgan xolatlardir.

⁵⁹ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache Leipzig, 1982, S. 183

⁶⁰ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Tuebingen: Max Niemeyer Verlag, 1997, S. 178

Demak, tizimli sinonimlar ikkiga: turli tizimli, ya'ni turli xil komponentlardan tashkil topgan frazeologik sinonimlar, xamda bir tizimli, ya'ni tarkibidagi komponentlar bir tartibda bir xil qo'llangan frazeologik sinonimlar.

1) *turli tizimli*: dumm wie Bohnenstroh sein; j-d ist dummer, als (es) die Polizei erlaubt; (Heu und) Stroh im Kopf haben; ein Mondkalb sein; ein Brett vor dem Kopf haben; j-d hat eins mit dem Holzhammer abgekriegt.⁶¹

2) *bir tizimli*: j-m den Kopf waschen; j-m auf den Kopf kommen; j-m die Leviten lesen; j-m den Marsch blasen; j-m u'ber den Mund fahren; j-m die Linie verpassen.⁶²

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xar ikkala turli va bir tizimli sinonimlar qatorini taxlil qiladigan bo'lsak, "*dumm sein*", ya'ni "*jinni bo'lmoq*" ma'nosini anglatuvchi yuqorida keltirilgan barcha frazeologik sinonimlarning tarkibiy komponentlari turli xil tizimda tuzilgan xamda grammatik jixatdan xam xar xil joylashgan. Biroq, ushbu keltirib o'tilgan frazeologizmlar nemis tilidagi frazeologik muqobillaridan farqli o'larok, tizim jixatidan bir tizimli xisoblanadi va **Ot + Fe'l** tarzida namoyon bo'ladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan keyingi bir tizimli sinonimik qator turli tizimli frazeologik sinonimlardan farqli o'larok, grammatik jixatdan xamma komponentlari bir xil tartibda tuzilgan, ya'ni barcha frazeologik sinonimda **S+V** formulasini uchratish mumkin. Demak, shuning uchun xam bu frazeologik sinonimlar bir tizimli sinonimlar, deb yuritiladi.

Shu o'rinda frazeologik sinonimlarning mezonlariga ko'ra eng ko'p tarqalgan ma'noli turlariga quyida ahamiyat bersak:

Dummheit:

Jemanden hat der Esel im Galopp

mit dem Klammersack gepudert sein

verloren

nicht bis drei zählen können

Ein Brett vor dem Kopf haben

das Pulver nicht erfunden haben

⁶¹ Kaslandziya V. A. Sinonimiya v nemetskoy frazeologii M.: Vishaya Shkola, 1990, C. 27

⁶² Kaslandziya V.A. Sinonimiya v nemetskoy frazeologii, M.: Vishaya Shkola, 1990, C. 89

Dummer sein, als die Polizei
erlaubt

dumm sein wie Bohnenstroh
nicht weit her sein

Erschöpfung, Verausgabung:

Den Kanal voll haben
Sauer sein
Erledigt sein
Total von der Rolle sein

fix und fertig sein
fertig auf dem Docht sein
auf dem letzten Loch pfeifen
auf dem Zahnfleisch gehen

Furcht:

Die Hosen voll haben
Manschetten haben
jm läuft es (heiß und kalt)
über den Rücken (den
Rücken herunter)

zittern wie Espenlaub
jm geht der Frack
jm bis ins Mark dringen
alte Füße bekommen
Blut und Wasser schwitzen

Ablehnung:

jn abblitzen lassen
jm einen Korb geben
jm im Mondschein begegnen
können
jn abschlägig bescheiden
Auf Distanz zu jm gehen
jn nicht riechen können
Einen Pik auf jn haben
Es auf jn abgesehen haben

jm eine Abfuhr erteilen
jm gestohlen bleiben können
jm den Buckel herunterrutschen
können
sich jn vom Leibe halten
jm den Rücken wenden/ kehren
jn in die Pfanne hauen
die Nase voll haben von jm/etw
jn zur Minna machen

verärgern:

Jn auf achtzig bringen
Jn auf die Palme bringen

es ist, um auf die Akazien zu klettern
sich mit jm anlegen

Sich mit jm in die Wolle kriegen
Der Kragen platzt jm
Jm auf die Nerven gehen

in die Luft gehen
jn zur Weißglut reizen
jm auf die Röhre gehen

(übertriebene) Anpassung

Die Fahne nach dem Wind
hängen
Sich bei jm lieb Kind machen
Für jn Partei ergreifen

mit den Wölfen heulen
jm nach dem Munde reden
jm Honig um den Mund/Bart/
ums Maul schmieren

Krankheit:

Nicht auf der Höhe sein
Das Bett hüten müssen
Sich unwohl fühlen

nicht auf dem Damm sein
nicht auf dem Posten sein
auf der Nase liegen

Sterben:

Es nicht mehr lange machen
Den Löffel abgeben
Die Latschen stehen lassen/
Aus den Latschen kippen

daran glauben müssen
das Zeitliche segnen
über den Jordan gehen
js Uhr ist abgelaufen

Verrücktheit

Eine Meise haben
Einen Knall haben

einen Klaps haben
nicht alle Tassen im Schrank haben. ⁶³

Quyida guvoh bo'lganimizdek, nemis tilida frazeologik sinonimlar ma'lum guruhlini qamrab olar ekan. Bu esa o'z navbatida frazeologik ma'nodoshlikni keltirib chiqaradi.

⁶³ <http://www.redensarten.net>

Bundan tashqari, mazmunan teng bo'lgan frazeologik sinonimlar nafaqat turg'un, balki uzluksiz kengayish, ya'ni tarvaqaylash xususiyatiga xam egadir. Frazeologik sinonimlarning bunday aloxida xususiyatga egaligiga sabab ularning frazeologizmlardan iborat obrazli semantik butunlikka ega bo'lganligidir. Frazeologizmning tizim jixatidan o'ziga xosligi, ya'ni aloxida shakllanishi, frazeologizmlarni sinonimik jixatdan boshqarish uning konnotativ xususiyatini kuchaytirish uchun asos bo'la oladi. Bu frazeologik birliklarning til va so'zlashuvdagi xususiyati, moxiyatan komponentlarni yangilash bilan bog'likdir.⁶⁴

Demak, frazeologik sinonimlar muxim til vositalaridan biridir. Frazeologik sinonimlarni kontekstga binoan turli variantlarda qo'llash mumkin. Ularni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda esa maqbul variantlarining mosini qo'llash mumkin.

⁶⁴ Imyaminova Sh. S. Nemis tili frazeologiyasi T.: Mumtoz so'z, 2011, 36-37- b.

III BOB

3. 1. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLAR- NING MORFOLOGIK VA SEMANTIK HUSUSIYATLARI

3.1.1. Freazeologik sinonimlarni tarjimada morfologik jihatdan mos kelish, mos kelmaslik holatlari

Yuqoridagi boblarda biz guvohi bo'ldikki, frazeologik sinonimlar nemis va o'zbek tillarida birdek teng ahamiyatga ega. Nemis va o'zbek tillarida barcha frazeologik sinonimlarida o'z morfologik hamda semantik hususiyatiga ko'ra mos kelish, mos kelmaslik holatlarini ko'rish mumkin. Mos kelishlik ya'ni frazeologizmga ekvivalentlik nemis tilida qanday kuzatiladi. Bu haqida frazeologiya doirasida tadqiqot ishlarini yanada kengaytirgan frazeolog M. Vajiskovanning quyida ta'rifini kuzatazlik:

„Bei der Untersuchung der Phraseologismen im Rahmen der kontrastiven Phraseologie sucht man zu Phraseologismen aus der Ausgangssprache passende Phraseologismen in der Zielsprache. Je nachdem, ob sie ganz identisch sind oder ob einige Unterschiede zwischen ihnen bestehen oder ob ueberhaupt kein entprechender Phraseolgismus gefunden wurde, unterscheidet man drei Typen von Äquivalenz.“⁶⁵

Bunga ko'ra:

1. Volläquivalenz (to'liq ekvevalentlik)- **bereits mit einem Bein im Grabe stehen/bir oyog'i go'rda bo'lmoq**
2. Teiläquivalenz (qisman ekvevalentlik)- **j- d ist bekannt wie eine bunte Kuh- otning qashqasidek mashur bo'lmoq**
3. Nulläquivalenz (nol ekvevalnetlik)

Demak, biz frazeologik sinonimlarni tahlil etayotganimizda ana shu uch guruhga alohida e'tiborimizni qaratar ekanmiz. Ushbu bobimizda esa, biz frazeologik

⁶⁵ Vajiskova M. Lexikalisch Grundwissen in Sprachsystem und Sprachgebrauch: Einführung in die Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Bratislava, 1996, S.97

sinonimlarni morfologik strukturasi tahlil etishni kuzatamiz va uning jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratamiz: ifodalaydigan kategorial umumiy ma'nosiga ko'ra, tuzilishiga ko'ra va b. Bugunga qadar, frazeologizmlarni olimlar V. Flaysher, M.D. Stepanova, I. I. Chernishevalar so'z turkumlariga ko'ra ajratadilar. Tilshunos olim V.V.Vinogradov esa frazeologizmlarni semantik jixatdan klassifikatsiyalagan bo'lsa, V. Flaysher morfologik - sintaktik jixatdan klassifikatsiya qiladi va frazeologizmlar tarkibidagi barcha so'z komponentlarini morfologik paradigma jixatdan taxlil kilib, ularni quyidagi sinflarga ajratadi:

- *otli,*
- *sifatli,*
- *ravish,*
- *fe'lli.* ⁶⁶

3.1.1.1. Substantivische Phraseologismen (otli frazeologizmlar)

Bu jihatda frazeologizmning o'zagi **Substantiv** hamda **Attribut** birlashmasidan tashkil topadi.

- *kalte Dusche*
- *offenes Geheimnis*
- *die treibende Kraft*
- *geschlossene Gesellschaft*
- *Kaffee verkehrt*
- *das Auge des Gesetzes*

3.1.1.2. Adjektivische Phraseologismen (sifatli frazeologizmlar)

- *gut gepoltstert sein*
- *ein Frisch gebackener Ehemann*
- *fix und fertig*

⁶⁶ Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. T.: Mumtoz so'z, 2011, 41-b.

3.1.1.3. Adverbiale Phraseologismen (ravishli frazeologizmlar)

- **Präposition+ Substantiv** : *auf Anhieb*
- **Präposition+ Adverb/Adjektiv**: *im Voraus*
- **Substantiv+und+Substantiv**: *Tag und Nacht, Knall und Fall*
- **Adj./Adv.+undAdj./Adv**: *durch und durch, über und über*

3.1.1.4. Verbale Phraseologismen (fe'lli frazeologizmlar)

Substantivische Basisikomponente:

- *die Karten aufdecken*
- *Fresengeld geben*

Adjektivisch-adverbiale Basiskomponente:

- *sauer reagieren auf etw.*
- *zu kurz kommen*
- *langsam schalten*

Zweite verbale Basiskomponente:

- *die Engel im Himmel singen hören*⁶⁷

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, fe'lli frazeologizmlarni boshqa frazeologizmlarga qaraganda ko'proq uchratamiz. Ammo J. Ries keyinchalik o'z ishlarida ko'proq ravish va ravishdoshlardan iborat so'z birikmalarini taxlil etadi. Biroq shu bilan birga, ko'plab nemis olimlari jumladan O. Behagel, J. Erben, R. Brummel va boshqalar yuqorida to'xtalib o'tilgan klassifikatsiyani ma'qullaydilar va bu klassifikatsiya iboralar uchun qulay deb hisoblaydilar.

Bundan tashqari, yuqorida berilgan to'rt guruh tarkibiga kiruvchi frazeologizmlardan tashqari ular yana bir qancha sinflarda uchrashi mumkin. Quyida ularni kuzataylik:

⁶⁷ <http://www.amalgama-lab.com/phraseologisms/09976/>

a) Verb oder Adjektiv/Adverb + wie + Substantiv:

Flink wie ein Wiesel	dumm wie Bohnenstroh
Klar wie Kloßbrühe	frech wie Oskar
Arm wie eine Kirchenmaus	zäh wie Hosenleder
Schwarz wie die Nacht	blau wie ein Veilchen
Rot wie Blut	weiß wie Schnee
Stark wie ein Baum	schlank wie eine Gerte
Regelmäßig wie ein Uhrwerk	frei wie ein Vogel
Frieren wie ein junger Hund	zittern wie Espenlaub

b) Verb + wie + Partizip:

Sich fühlen wie gerädert	lügen wie gedruckt
Stehenbleiben wie angewurzelt	kommen wie gerufen

c) Verb + wie + Satz

Reden, wie einem der Schnabel Gewachsen ist	sein, wie jd im Buche steht reden, wie jd es versteht
--	--

d) Substantiv + wie:

Ein Kerl wie ein Baum	Zustände wie im alten Rom
-----------------------	---------------------------

g) Verb oder Adjektiv/Adverb + andere Strukturen als wie:

Dümmer als die Polizei erlaubt	jd tut, als hätte er die Weisheit
Sein, um auf die Akazien zu	Löffeln gefressen klettern

Ushbu misollardagi frazeologizmlarning biz komponentlarini qaysi so'z turkumidan yoki qaysi asoslarda tuzilganini ko'rib chiqdik. Nemis tilida o'zbek tilidan farqli jihati shundaki, iboralarning turg'unligi ko'p holatlarda tez- tez kuzatiladi. Jumladan quyidagi holatlarda:

a) Negate als obligatorische Komponenten (bo'lishsizlik holatida)

<i>Nicht</i> alle Tassen im Schrank haben	<i>nicht</i> alle Daten im Speicher haben
<i>nicht</i> von schlechten Eltern sein	<i>nicht</i> von gestern sein
<i>Keine</i> groben Sprünge machen	das Pulver <i>nicht</i> erfunden haben
	<i>nicht</i> auf der Straße liegen

können	mit jm ist <i>nicht</i> gut Kirschen essen
jm <i>nicht</i> grun sein	<i>keinen</i> Finger rühren
mit etw <i>keinen</i> Hund hinter	Da spielt sich <i>nichts</i> ab.

b) Eigennamen als obligatorische Komponenten (ism va nomlar turg'un bo'lib kelganda)

a) Vornamen:

jn zur <i>Minna</i> machen	frech wie <i>Oskar</i>
aus einem <i>Saulus</i> zum <i>Paulus</i> werden	ein <i>Hans</i> im Glück sein
der deutsche <i>Michel</i>	bei <i>Adam</i> und <i>Eva</i> anfangen
	wie ein <i>Damoklesschwert</i> über jm

c) ein Possessivpronomen ist konstant: (egalik olmoshlari turg'unlgida)

<i>sein</i> Süppchen kochen	<i>seinen</i> Dreier dazugeben müssen
<i>sein</i> Mütchen kühlen	nicht auf <i>seinem</i> (<i>ihrem</i>) Mist
sich auf <i>seinen</i> Lorbeeren	gewachsen sein

e) Das Reflexivpronomen in bezug auf das Subjekt ist konstant: (sich olmoshi otlarga hoslangan bo'lsa)

<i>Sich</i> keinen abbrechen sollen	es in <i>sich</i> haben
Was hat es damit auf <i>sich</i> ?	das Ding an <i>sich</i>
Etw von <i>sich</i> geben	<i>sich</i> Zeit nehmen

f) Pronominaladverbien mit da – als obligatorische Komponenten: („da“ ravishi qo'llanilsa)

jm liegt etw/nichts <i>daran</i>	nichts <i>dabei</i> finden
<i>Daran</i> glauben müssen	etw/nichts <i>dagegen</i> haben
Wie denkst du <i>darüber</i> ?	Recht <i>daran</i> tun

Endi yana boshqa misollarni nemis va o'zbek tilida taqqoslangan holda ko'rib chiqsak:

1. Artiklli yoki artiklsiz ot:

- sich (D) Das Hirn zermarten - boshini qo'tirmoq,;
- sich (D) den Kopf zerbrechen - boshini og'ritmoq,;
- Haare spalten, - Kummel spalten- tirnoq, tagidan kir qidirmoq

2. Sifat aniqlovchi yoyiq ot yoki aniqlovchi olmosh yoki son bo'ladi:

a) sifat + ot: den grossen Mund haben - katta og'iz bo'lmoq,

eine große Klappe haben – og'zini to'ldirib gapirmoq,

grosse Bogen spucken – og'iz ko'pirtirmoq.

b) olmosh + ot: seine Nase in etw. stecken - burnini suqmoq;

seine Finger in etw. stecken - oshga tushgan pashsha bo'lmoq,.

v) son + ot: mit zwei Zungen reden yoki zwei Herrn dienen- ikkiyuzlamachi bo'lmoq.

3. Aniqlovchi predlogli gurux orqali va ot kengaytmasida:

- sich etw. aus dem Kopf schlagen - miyasidan chiqarib tashlamoq,;
- Haare auf den Zähnen haben - tili o'tkir bo'lmoq; og'zi botir bo'lmoq,;
- unter der Nase gut zu Fuss sein, gap bilan og'ziga urmoq.

4. Predlogli (ravishli) gurux orqali fe'lli komponentlarning kengaytmasi:

- sich etw hinter den Ohren schreiben – quloqqa quyib olmoq;
- sich etw hinter die Löffel schreiben - miyasiga quyib olmoq;
- sich etw hinter den Spiegel stecken- diliga jo qilib olmoq.

Yuqorida biz fe'lli frazeologizmlar tahlilini ko'rib chiqdik va ularni o'zbek tiliga mos kelish holatlarini misollar yordamida ko'rdik. Albatta, keltirilgan misollardan shu narsa yana aniqlashdiki, nemis tilida o'zbek tiliga nisbatan fe'lli frazeologizmlar ko'pchilikni tashkil etar ekan. Quyidagi esa fe'lli va otli frazeologik sinonimlar strukturaviy klassifikatsiya jixatidan taxlil qilingan bo'lib, ularning deyarli barchasida *ot + fel, ya'ni S + V* formulasini uchratish mumkin:

j-m nach dem Mund reden / S + V,- tilyog'lamalik qilmoq,

j-m in den Bart gehen /S + V,- tilyog'lamalik qilmoq va b.

einen Bock schiessen/S+V,-boplab qo'ymoq va shu kabi boshqa frazeologizmlarni kuzatish mumkin. ⁶⁸

Yuqorida ko'rib chiqilgan misollarning taxlil natijlari shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlarning ko'p foizi fe'lli frazeologizmlardan iborat. O'tli frazeologizmlarning sinonimlari ham hatto fe'lli frazeologizmdan iborat bo'lishi mumkin. Fe'lli frazeologizmlarda fe'l bosh ma'noni boshqarib keladi. Berilgan frazeologizmning tubida yashiringan asl ma'nosi xam ko'pincha fe'l bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, nemis tilidagi frazeologik sinonimlarning o'zbek tiliga morfologik jihatdan mos kelish yoki mos kelmasligi ham muhim jarayondir. Quyida misollarga e'tibor beraylik:

Masalan: *den grossen Mund haben*

Bu yerda ko'rishimiz mumkinki, **Adjektiv+Substantiv+Verb** formulasini uchratish mumkin. O'zbek tilida ham huddi ana shu formulaga duch kelamiz:

Masalan: *katta og'iz bo'lmoq*. Ya'ni, **Sifat+ Ot+ Fe'l** shakli.

Quyida yana bir misolga nazar solsak:

“j-m nach dem Mund reden” bu frazeologizmda **Predlog+ Substantiv+ Verb** komponentlarini ko'rish mumkin. O'zbek tilida esa ushbu holatni kuzatmaymiz. Ya'ni: **“tilyog'lamalik qilmoq”**. Bu yerda faqat **Ot+ Fe'l** uchratish mumkin. **Masalan: “ins Gras beißen”**, ushbu frazeologizm o'zbek tiliga **„jon taslim qilmoq“** tarzida tarjima qilinsa ularning ikki tildagi morfologik komponentlari quyidagichadir:

Nemis tilida: Präposition+ Substantiv+Verb


O'zbek tilida: Ot+ fe'l qo'shmasi

Xulosa qilib shuni aytib o'tish kerakki, ushbu misollardan anglashilganidek nemis tilidagi frazeologik sinonimlar morfologik jihatdan ham o'zbek tilidagi

⁶⁸ Kaslandziya V.A. Sinonimiya v nemetskoy frazeologii, Moskva, Vishaya Shkola, 1990, 23-26 b.

frazeologik sinonimlarga ko'p hollarda mos keladi, qisman jihatlarda, ya'ni **predlogli, artikelli hamda "sich" olmoshi** bilan kelgan holatlarda mos kelmaslik jarayonini kuzatish mumkin. Eng ahamiyatlisi, frazeologizmlar va ularning sinonimlari fe'lli yoki otli bo'lishidan qa'tiy nazar nutqimiz ko'rki xamda xalq donoligining ifodasi demakdir.

3.1. 2. Freazeologik sinonimlarni tarjimada morfologik jihatdan mos kelish, mos kelmaslik holatlari bo'yicha foiz ko'rinishi



3.1.3. Frazzeologik sinonimlarni tarjimada semantik jihatdan mos kelish, mos kelmaslik holatlari

Frazzeologik sinonimlarning o'z semantik va stilistik ko'rsatkichlariga ko'ra guruhlanishi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

- 1) teng ma'noli sinonimlar ;
- 2) ideografik sinonimlar ;
- 3) stilistik sinonimlar.

Teng ma'noli sinonimlar bir xil tushuncha va bir xil fikrni anglatadi. Ularning moddiy tarkibi leksik va tizim jihatidan turlicha bo'lishi mumkin.”⁶⁹

Masalan:

- *bei ihm fehlt eine Schraube;*
- *es spukt bei ihm im Kopfe;*
- *bei dem piepst's wohl*⁷⁰

„Ushbu keltirib o'tilgan frazeologizmlar butunlay o'zgacha tuzilishga, turli xil leksik tarkib va turlicha tasviriylikka ega bo'lishiga qaramay, ularning barchasi bir xil ma'noni, ya'ni *"g'alati, mengrov odam"* ma'nosini anglatadi va funksional - stilistik jihatdan bir xillikka ega. Ya'ni, kunda ishlatiladigan so'zlashuv nutqiga xosdir. **Quyida yana bir qator teng ma'noli frazeologik sinonimlarni ko'rib chiqamiz:**

- *j-m nach dem Mund reden (od. sprechen);*
- *j-m Honig um den Mund schmieren;*
- *j-m um den Bart gehen;*
- *j-m Kraut um den Bart schmieren;*
- *j-s Affen Zucker geben.*⁷¹

Ushbu frazeologik sinonimlarning barchasi ma'no jihatdan teng va *«j-m schmeicheln"*, ya'ni *"kimgadir xushomad qilmoq;"* ma'nosini bildiradi. Uning

⁶⁹ Chernisheva I.I. Frazzeologiya sovremmenova nemetskovo yazika.- M.: 1970, S. 91

⁷⁰ Kaslandziya V.A. Sinonimiya v nemetskoy frazeologii, Moskva, Vishaya Shkola, 1990, 32

⁷¹ O'sha manbaa 47-b.

o'zbek tilidagi muqobillari xam ma'no jixatdan bir- biriga mutloq mos keladi: *tilyog'lamalik qilmoq, paxta qo'ymoq, birovni mushugini sizlamoq.* „⁷²

„Bir xil ma'noli sinonimlardan tashqari, zamonaviy nemis tili frazeologik tizimida bir xil tushunchani ifoda etsa ham, bir-biridan semantik rang-barangligi bilan farq qiluvchi frazeologik birliklar mavjud. Ushbu ko'rinishdagi frazeologik birliklar idiografik frazeologik sinonimlar deb yuritiladi.“⁷³

Frazeologik sinonimlarning semantik rang- barangligi, mazmun jixatidan qaraladigan bo'lsa, ikkinchi darajali to'ldiruvchi, ya'ni qo'shimcha element sanaladi. Bu semantik rang- baranglik turli ko'rinishdagi frazeologik sinonimlarni xamda, birinchi navbatda, aks ettirayotgan xarakterning tezkorligi munosabatlaridagi frazeologik sinonimlarni differentsiallashi mumkin.⁷⁴

"*Biror kishini juda yoqtirmoq, yaxshi ko'rmoq;*" frazeologik sinonimlar o'zbek tilida o'z muqobillariga ega:

- *ko'ngil bermoq, ko'ngil qo'ymoq,*
- *ko'ngil bog'lamoq,*
- *o'zini yettinchi falakda his qilmoq,*
- *sevgidan sarmast bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq;.*

Keltirib o'tilgan ushbu o'zbek tilidagi frazeologik sinonimlardan "o'zini yettinchi falakda xis qilmoq;" va "sevgidan sarmast bo'lmoq" frazeologizmlari qolganlariga nisbatan kuchli xis tuyg'u bilan yug'rilgan.

"Yaxshi ko'rmoq" iborasi esa aksincha. Bu iborani nafaqat insonga nisbatan, balki barcha yoqtirgan narsalarga nisbatan xam qo'llash mumkin. O'zbek tilidagi "o'zini yettinchi falakda xis qilmok" frazeologizmiga nemis tilida xam ma'no jixatidan, xam tarjima jixatidan mutloq mos keluvchi muqobili mavjud: *im siebenten Himmel sein (oder schweben)*. Keltirib o'tilgan

⁷² Inyaminova Sh. S. Nemis tili frazeologiyasi. - T.: Mumtoz so'z, 2011, 43- 44

⁷³ Chernisheva I.I. Frazeologiya sovremmenova nemetskovo yazika.- M.: 1970, 95

⁷⁴ Chernisheva I.I. Frazeologiya sovremmenova nemetskovo yazika.- M.: 1970, 95

nemis va o'zbek tillaridagi barcha frazeologizmlar semantik jixatdan rang-barang bo'lishidan qat'iy nazar, ularning hammasi frazeologik birlik xisoblanaveradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan sinonim turlaridan tashqari, tilda yana stilistik jixatdan frazeologik sinonimlar xam mavjud.

Frazeologiyadagi stilistik sinonimlar umumiy ma'noga egaligi va qo'shimcha stilistik farqlari bilan xarakterlanadi. Ular, birinchidan, o'zgaruvchan so'zlarning xar xil funksional - stilistik bog'likligi oqibatida turli ko'rinishga ega komponentlardan iborat bir strukturali sinonimlarda paydo bo'ladi. Bu xolatda, ot so'z turkumiga oid komponentlarning turlanishini aks ettiruvchi frazeologizmlar yaqqol misoldir. Frazeologizmning stilistik xarakteristikasi turlanayotgan komponentning qaysi bir yo'nalishda - adabiy tildami, kundalik muloqot tilidami, maxsus leksikadami, xududiy dialektidami, foydalanishiga qarab o'zgaradi. **Jumladan:**

- a) **gehoben**⁷⁵- jmnd. zur Hölle wünschen
- b) **normalsprachlich**- es ist noch kein Meister vom Himmel gefallen
- c) **umgangsprachlich**- dem liben Gott den Tag sthelen
- d) **umgangsprachlich- salopp**- zum Himmel stinken
- e) **vulgär**- Himmel, Arsch und Wolkenburuch

Endi quyida nemis tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilingan asarlardan olingan misollar bilan frazeologik sinonimlarni semantik jihatidan taxlil etamiz:

“ **Betrunken sein**”

Bu frazeologizmni nemis tilida bir qancha sinonimlari mavjud. M:

- *einen Affen (sitzen) haben* (umg., salopp)
- *blau wie ein Veilchen sein* (umg., scherzh.)
- *voll sein wie eine Strandhaubitze* (umg., salopp)
- *voll sein wie ein Sack* (umg., salopp)
- *zu tief ins Glas geguckt (od. geschaut) haben*

⁷⁵ <http://wiki.de/Römer/> Matzke, 2003, S. 127

- *weiße Mäuse sehen* (umg., salopp)⁷⁶

Shavkat Rahmatullaevning „O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atida“ esa ushbu frazeologik sinonimlarning quyidagi variantlari keltirib o‘tilgan.

- *Bazo‘r oyog‘ida turmoq;*
- *Xumga bo‘kib qolmoq.*

Endi ushbu frazeologik sinonimlarni nemis tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilingan Hermann Hessening „Cho‘l bo‘risi“ asarida ko‘rib chiqaylik:

„*Wenn er zu tief ins Glas geschaut hat, findet er meist das Schlüsselloch nicht mehr.* „ (Steppenwolf S.61)

„*U ko‘pincha ichib kelgan vaqtlari, sira kalit tirqishini topa olmas edi.*“ (Cho‘l bo‘risi. 32-bet. M. Akbarov)

Misoldan anglashiladiki, bu yerda nemis tilidagi ibora semantik jihatdan mos kelishiga qaramasdan tarjimon M. Akbarov tomonidan o‘zbek tilida boshqa bir birlik bilan ifodalangan.

- *Zur Ruhe kommen;*
- *Die Ruhigkeit bauen.*

O‘zbek tilida ma‘nosi, „**orom olmoq**“, „**tin olmoq**“ iboralariga to‘g‘ri keladi. Endi esa shu jumla qatnashgan misolni ko‘rib chiqaylik:

„*Statt deine Welt zu verengern, deine Seele zu vereinfachen, wirst du immer mehr Welt, wirst schliesslich die ganze Welt in deine schmerzlich erweiterte Seele aufnehmen muesse, um vielleicht einmal zum Ende zur Ruhe zu kommen.*“ (Steppenwolf S.72.)

Ushbu jumlaning M. Akbarov xuddi shunday tarjima qilgan:

„*O‘z olamingni toraytirish, o‘z qalbingni soddalashtirish o‘rniga sen endi, ehtimol oxiratga abadiy oromga erishish uchun yanada kengroq olamni, pirovardida butun dunyoni o‘zingning qayg‘u- hasratla kengaygan qalbing, ko‘nglingga sig‘dirishinga to‘g‘ri keladi.*“ (Cho‘l bo‘risi. 38)

⁷⁶ Kaslandziya V.A. Sinonimiya v nemetskoy frazeologii, Moskva, Vishaya Shkola, 1990, 7

Ushbu jumlada ifodalangan „**zur Ruhe kommen**“ frazeologizmi „**tin olmoq**“ deb emas balki, „**abadiy oromga erishish**“ orqali ifodalangan. Ushbu misolda ham ibora ma’no jihatidan bir- biriga mos kelsada, ammo frazeologizm o’rni o’zbek tilida odiiy so’z birligi ifoda etgan.

Quyida shu asardan olingan yana bir iborani ko’rib chiqsak.

- **ein kalter Schauer über den Rücken laufen;**
- **von den Socken sein.**

O’zbek tiliga esa ushbu iboralar „**boshdan bir paqir suv quymoq**“ ma’nosida tarjima qilinadi. Bu frazeologizmni ham endi bevosita tarjima qilingan asarda ko’rib chiqaylik:

„Ich war sehr gekränkt durch Ihre Worte, sogar ein kalter Schauer lief mir sofort über den Rücken.“ (Olmon nasridan namunalar. Alex Rambes „Wie ich staatlich werden wollte. S.122)

„Uning bu so’zlarini eshitib, boshimdan bir paqir suv quyildi, xatto badanlarim jimirlab ketdi.“ (Olmon nasridan namunalar. Aleks Rambes. Qanday qilib hushbichim bo’lmoqchiligim haqida. 123-bet)

Bu yerda esa tarjimonning mahoratliligi yaqqol ko’rinib turadi. Sababi shundaki, nemis tilidagi keltirilgan ushbu iboralar o’zbek tiliga xuddi asl ma’nosida berilgan va frazeologizm o’z ma’nosiga ega bo’lgan.

Sh. Rahmatullaevning „O’zbek tilining izohli frazeologik lug’atida“ o’limi yaqin insonga nisbatan quyidagi frazeologik sinonimlar keltirib o’tilgan. Masalan:

- *bir oyog’i go’rda bo’lmoq;*
- *o’lim to’shagida yotmoq.*⁷⁷

Ushbu iboralarning nemis tilida ham huddi o’zbek tilidagi kabi bir qancha ma’nodosh variantlari mavjud.

- *mit einem Bein (od. Fuß) bereits im Grabe stehen* (umg.);
- *in den letzten Zügen liegen;*
- *ins Grass beißen ;*

⁷⁷ Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati

- *auf dem letzten Loch pfeifen.*⁷⁸

Guvohi bo'lganimizdek, „bir oyog'i go'rda bo'lmoq“, „o'lim to'shagida yotmoq“ iboralarining nemis tilida bir qancha variantlari mavjud ekan. Endi bularni semantik jihatdan mos kelish holatini quyidagi misollarda kuzataylik:

„*Er kann nichts mehr übernehmen. Der steht doch mit einem Bein im Grabe.*“ (J.W. Goethe. *Die Leiden des jungen Werthers*“ S.49)

„*U deyarli hech narsani sezmay qoldi. O'lim to'shagida yotibdi axir.*“ (Yosh *Verterning iztiroblari*. Y.Egamova tarjimasi. 31-b)

Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik sinonimlarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, nemis tilidagi ayrim frazeologizmlar va ularning sinonimlari har doim ham o'zbek tiliga ma'no jihatdan mos kelavermas ekan.

Quyida yana bir misolni ko'rib chiqaylik. Nemis tilida badavlat kishiga, puli ko'p shaxsga nisbatan quyidagi frazeologizmlar ishlatiladi.

- *Geld wie Heu haben;*
- *j-d stinkt nach Geld;*
- *Knöpfe haben va b.*⁷⁹

Bu frazeologizmlar nemis tilida o'zoro sinonim hisoblanadi. Ushbu iboralarning o'zbek tilidagi ma'nosi esa quyidagilardan iborat.

- *davlati to'lib toshmoq;*
- *mol- davlatli bo'lmoq v.b.*

Endi ushbu iboralarni tarjima asardan olingan parchalarda ko'rib chiqaylik:

“*Der Alte*”, *flüsterte sie und kam näher, hat Geld wie Heu!*” (J. Erpenbek “*Heimsuchung*” S. 81)

“*U qari cholda, yaqinroq kelib pichirladi u, pul degani mo'l.*” (J. Erpenbek “*Makon istab*” X. Qo'chqorova tarjimasi 59-b.)

⁷⁸ Kaslandziya V.A. *Sinonimiya v nemetskoy frazeologii*, Moskva, Vishaya Shkola, 1990, 9

⁷⁹ <http://www.amalgama-lab.com/phraseologisms/25674/>

Quyida yana bir misolni ko'rib chiqaylik:

- *j- d ist bekannt wie ein bunter Hund;*
- *j- d ist bekannt wie eine bunte Kuh.*

Ushbu iboralar o'zoro sinonim hisoblendi. Endi bularni Sh. Rahmatullevning „O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atidan“ ma'no jihatdan mos keluvchi iboralarini ko'raylik.

- *dongi chiqmoq;*
- *dong ketmoq;*
- *otning qashqasidek ma'lum bo'lmoq. (73 b.)*

Guvohi bo'lganimizdek, ushbu frazeologizmlarni o'zbek tilida ma'no jihatdan mos keluvchi ekvivalentlari mavjud. Endi buni bevosita nemis tilidan o'zbek tiliga qilingan badiiy asar tarjimasida ko'rib chiqsak.


„Du kennst doch ihn nicht mit seinem lila Hut? Der ist doch bekannt wie ein bunter Hund.“

„Naxot uni zangori shlyapasidan tanimading? Uni ahir hamma otning qashqasidek taniydiku.“

Bugungi kunga qadar olimlar, shu sohada izlangan tadqiqotchilarning fikrlaridan, hamda ushbu malakaviy bitiruv ishning tahlil natijalaridan bilish mumkinki, nemis tilidagi frazeologik sinonimlarni o'zbek tiliga berilganida ko'p holatlarda ikki tildagi iboralar semantik jihatdan mos keladi.

Bunda esa o'z navbatida o'sha nemis tilidagi frazeologizmni o'zbek tilida qisman mos keluvchi iborasi tanlanadi. Misollardan anglashiladiki, ularni faqatgina o'zbek tilida o'xshash ma'noga ega ekanligi bilan tarjima qila olish mumkin. Ularning o'zbek tilida mutloq mos keluvchi muqobillari ba'zi holatlarda mavjud emas.

3.1.4. Freazeologik sinonimlarni tarjimada morfologik jihatdan mos kelish, mos kelmaslik holatlari bo'yicha foiz ko'rinishi



XULOSA

Dunyo tillari orasida tilni ravon qilishga, uni yanada bo'yoqdor qilishga bir qancha til birliklari mavjud. Bulardan biri iboralar bo'lib, ular tilni yanada go'zalroq qilishga ko'mak beradi. Shuningdek, frazeologizmlar chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda nutqqa alohida ko'rk, tarovat bag'ishlaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o'zi yo'q, hususan biz tahlil qilayotgan o'zbek va nemis tillari frazeologiyasi ham juda boy va o'zining ko'p asrlik tarixiga ega.

Frazeologik sinonimiya masalasiga ayniqsa, Y. D. Apresyan chuqur yondoshgan. Olim frazeologik sinonimiyani belgilovchi o'lchovlar sifatida iboralarning ma'nosi, sintaktik funktsiyasi, sintaktik formasi, kontekstual hoslanish kabilarni kiritadi.⁸⁰

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham ko'p mikdorni tashkil etadi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib ham bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolikni teng ma'nolik deb tushunib bo'lmaydi. Xar bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi. Huddi shu fikrni nemis olimi W. Flaysher ham tasdiqlaydi.

Ushbu dissertatsiyamizda tahlil qilingan nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik sinonimlar va ularning grammatik, semantik hususiyatlari yuzasidan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

Birinchidan: Tilshunoslikda frazeologiya sohasi muhim ahamiyatga ega bu soha bo'yicha nemis va o'zbek tilida bir qancha olimlar ishlar olib bordi va ilmiy yangiliklar yaratdi. Frazeologizmlar yordamida har qanday fikrni ifoda etish mumkin bo'lsa, frazeologik sinonimlar ko'magida ularni turli xil kontekstlarda turli

⁸⁰ Апресян Ю. А. Фразеологические синонимы типа глагол-существительное в современном английском языке М.: Просвещения, 1976, С.5

stilistik uslublarga ko'ra qo'llay olish mumkin. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot ishimizda ham frazeologik sinonimlar va ularning mohiyati, semantik xususiyatlari, grammatik qurilishi va ularning tildagi muammolariga to'xtalib o'tdik.

Ikkinchidan: Nemis tilidagi frazeologik sinonimlar o'zbek tili bilan qiyoslanganda, o'xshash va yaqin tomonlari hisobga olib va taxlil natijalari asosida xulosa chiqarildi. Ya'ni frazeologizmlar har doim ham nemis tilidan o'zbek tiliga semantik hamda grammatik jihatdan mos kelavermaydi. Shu jihatdan ularning ilmiy ishimizda mos kelish, mos kelmaslik yuzisidan foiz ko'rsatkichlarini ishlab chiqdik.

Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik sinonimlar frazeologiyaning eng muhim tarmog'laridan biri bo'lib, hali ko'p o'raganib chiqilmagan.

Yuqorida takidlab o'tilganidek, yurtimizdagi har bir sohada olib borilayotgan kichik bir izlanish ham, o'z o'rniga ega va kimgadir holis hizmat qiladi.

Frazeologizmlar qanday turli, yohud turli xalqqa tegishli bo'lmasin, u o'z navbatida inson nutqini go'zal hamda shu bilan birga ravon ifodalanishiga hizmat qiladi. Zero, ular xalq donoligi ifodasi demakdir.

ZUSAMMENFASSUNG

In der Dissertation geht es um „Die phraseologische Synonyme in der deutschen und usbekischen Sprachen und ihre grammatische, semantische Besonderheiten“.

All bekannt, Phraseologie spielt in unserem Leben eine große und dabei besondere Rolle. Phraseologismen, auch als feste Wortverbindungen, idiomatische Wendungen, Redewendungen oder Redensarten bezeichnet, bilden einen wichtigen Bestandteil des Wortschatzes jeder Sprache. Man benutzt verschieden Typen von phraseologischen Einheiten (u.a. Idiome, Redewendungen, Sprichwörter, Wortpaare, Vergleiche) mehr bewusst oder unbewusst im alltäglichen Gespräch. Sie widerspiegeln und vermitteln unsere eigene Denk- und Ausdrucksweise. Damit hängt natürlich auch unsere soziale Integration in der Gesellschaft zusammen. Durch die Phraseologie-Verwendung kann man die Rede schön machen, sie bereichern, ihre Mannigfaltigkeit beweisen oder Humor und Ironie erzeugen. Aus diesem Grund verwenden wir in unserem Alltag phraseologische Synonymen.

Die Aufgabe von phraseologischen Synonymen ist, das Interesse und die Aufmerksamkeit des Lesers oder Sprechers zu wecken, Aussagen lebendig machen, damit sie beim Rezipienten eindringen. Ein gutes Beispiel wäre, statt wir verstehen uns gut *wir liegen auf gleicher Welle* zu sagen oder statt du bist sprachlos geworden das Phrasem *dir hat es die Sprache verschlagen* einzusetzen. So machen wir unsere Äußerungen interessant und wirksam.

Den zentralen Teil der vorliegenden Masterarbeit bildet die kontrastive Analyse deutscher und usbekischer Phraseologismen, die ich aus den schönen Literatur gesammelt habe.

Bei der vergleichenden Analyse wurden die einzelnen deutschen Phraseologismen mit ihren usbekischen Äquivalenten nach der Stufe ihrer Übereinstimmung in drei Gruppen der Äquivalenz eingeteilt. (passende und unpassende). Das Deutsche gehört zu den germanischen, das Usbekische zu den türkischen Sprachen, aber trotzdem weisen sie dank dem langzeitigen nahen

Sprachkontakt viele Gemeinsamkeiten und Ähnlichkeiten auf. Diese Tatsache bestätigen deutlich auch Ergebnisse der vorliegenden Arbeit. Die meisten Phraseologismen befinden sich in der Gruppe der Teiläquivalenz (etwa 67,5%), dann folgen die mit der Volläquivalenz (etwa 26,8%) und Nulläquivalenz (etwa 5,7%).

Als volläquivalent werden nur solche deutschen und usbekischen Phraseologismen bezeichnet, die völlig identisch sind, also die keine morpho-syntaktischen und semantischen Unterschiede haben, weil in unserer Arbeit noch eine wichtige Aufgabe Analysieren der grammatischen und semantischen Besonderheiten von Phraseologismen war.

Aus der semantischen Untersuchung des Materials geht es hervor, dass nicht alle Phraseologismen semantisch zur Usbekische passen.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T. : Sharq nashriyoti, 2010.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor- kelajakka e'tibor. T.: Ma'naviyat, 2010
4. Agricola E. Wörter und Wendungen. Wörterbuch zum deutschen Sprachgebrauch, Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich: Dudenverlag, 1992
5. Апресян Ю. А. Фразеологические синонимы типа глагол-существительное в современном английском языке. Автореферат, канд. дисс., М.,1956
6. Beyer H. Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. Leipzig: VEB Institut, 1987.
7. Borchart W. Die sprichwörtlichen Redensarten im deutschen Volksmund nach Sinn und Ursprung erläutert. Leipzig: VEB Brockhaus Verlag, 1954.
8. Burger H. Handbuch der Phraseologie. Berlin: Erich Schmidt Verlag: 2003.
9. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag: 2003.
10. Berthelmann, Gundela (2010): *Russische Sprichwörter und Redensarten. Russisch - deutsch*. Stuttgart: Reclam (Reclams Universal-Bibliothek, 18737).
11. Burger H. (Hrsg.). Phraseologie / Phraseology. Ein internationales Handbuch der zeitgenössischen Forschung = Phraseology. Bd. 2, Berlin - New York : de Gruyter Verlag, 2007.
12. Борисова И.Ф., Имяминова Ш.С. Таржима назарияси ва амалиёти. -Т.: Университет, 2005.
13. Duden- Band. Redewendungen. Mannheim Duden Verlag, 1992.

14. Drosdowski G. Werner: Redewendungen und sprichwörtliche redensarten. Idiomatisches Wörterbuch der deutschen Sprache. Duden Band 11. Mannheim: Dudenverlag, 1992.
15. Eckert R. Aktuelle Probleme der Phraseologie. Karl-Marx- Universität, Leipzig, 1976.
16. Eismann, Wolfgang (1999): „Phraseologie.“ In: Jachnow, Helmut; Seemann, Klaus-Dieter (ed.) (1999); 321-366
17. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig, 1982.
18. Fridrich W. Moderne deutsche Idiomatik. Ismaning: Max Hueber Verlag, 1976.
19. Gataullin R. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache in Übungen. - Ufa: БашГУ, 2002
20. Görner H. Redensarten. Kleine Idiomatik der deutschen Sprache. Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1990.
21. Ho'jaev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. T., 1974.
22. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarini izohi lug'ati.- T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
23. Imyaminova Sh. S. Nemis tili frazeologiyasi. - T.: Mumtoz so'z, 2011.
24. Имяминова Ш.С. Олмон тили лексикологияси (маърузалар матни, олмон тилида). - Т.: Университет, 2000.
25. Imyaminova Sh. S. Olmon nasridan namunalar. T.: Mumtoz so'z, 2012.
26. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexikologie. - Ленинград: Издательство «Просвещение», 1970.
27. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: Talqin, 2005.
28. Klappenbach R. Probleme der Phraseologie. Karl-Marx- Universität, Leipzig, 1968.
29. Koshemjako W.S., Podgornaja L.I. Deutsche Sprichwörter und russische Äquivalente . - Санкт-Петербург: «Каро», 2000.

30. Olšanski I.G. Moderne deutsche Lexikographie. - Moskau: Vysšaja Škola, 1979
31. *Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov R. O'zbek tili. T. 1979. 1-2*
32. Мусаев К. Лексико - фразеологические вопросы художественного перевода. - Т., 1980.
33. *Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. T. 1993. 23*
Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1996.
34. Petermann, Jürgen; Hansen-Kokoruš, Renate; Bill, Tamara; Matešić, Josip (1995): *Russisch-deutsches phraseologisches Wörterbuch*. 1. Aufl. Leipzig ; Wien [u.a.]: Langenscheidt, Verl. Enzyklopädie.
35. Райхштейн А. Д. Немецкие устойчивые фразы. - Л., 1971.
36. Рахматуллаев Ш. Узбек ва рус тилларини қиёслаш. - Т.: Узбекистан, 1993.
37. Саломов Г. Таржима назариясига кириш . - Т., 1978.
38. Саломов Г. Таржима назарияси асослари. - Т., 1983.
39. Schemann H. Deutsche Idiomatik. Die deutsche Redewendungen im Kontext. Stuttgart/ Dresden: Ernst Klett Verlag, 1993.
40. Schemann H. Synonym Wörterbuch der deutschen Redensarten. Straelen: Straelen Verlag, 1989.
41. Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1992.
42. Stepanowa M.D. Černyšewa I.I. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. - Moskau: Vysšaja Škola, 1986.
43. Sialm, Ambros (1987): *Semiotik und Phraseologie. Zur Theorie fester Wortverbindungen im Russischen*. Bern; Wien [u.a.]: Lang (Europäische Hochschulschriften : Reihe 16, Slawische Sprachen und Literaturen, 37).
44. Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Хозирги узбек адабий тили. - Т.: У'збекистан, 1992.
45. Chernisheva I. I. Frazеologiya sovremmenova nemetskovo yazika.- М.: 1970.

46. Zentralinstitut für Sprachwissenschaft der Akademie der Wissenschaft der DDR (Hrsg.) (1984): *Untersuchungen zur Phraseologie*. Berlin: Akad u.a. von: Linguistische Studien / A.

FOYDALANILGAN LUG'ATLAR RO'YXATI

47. Касландзия В. А. Синонимия в немецкой фразеологии. - Москва, 1990.
48. Умарходжаев М., Назаров А. Немисча - русча - узбекча фразеологик лугат. - Т.: Укитувчи, 1994.
49. Рахматуллаев Ш. Узбек тилининг фразеологик лугати. - Т.: Комуслар бош тахририяти, 1992.
50. Содикова М. Краткий узбекско - русский фразеологический словарь. - Т.: Главная редакция Узбекской энциклопедии, 1989.
51. Содикова М. Кискача узбекча - русча баркарор иборалар лугати. -Т.: Укитувчи, 1994.

INTERNET RESURSLARI

52. <http://www.ziyo.net.uz>
53. <http://www.redensarten-index.de/>
54. <http://www.phraseo.de>
55. <http://www.redensarten.net>
56. <http://www.sprichwoerterbuch.de/>
57. <http://www.amalgama-lab.com/phraseologisms/> - русские фразеологизмы с немецкими и английскими аналогами
58. <http://www.amalgama-lab.com/proverbs/>
59. <http://www.sprichwoerter.net/>
60. <http://www.operone.de/spruch/spruchinh.htm>

**NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLAR-
NING GRAMMATIK, SEMANTIK HUSUSIYATLARI MAVZUIDAGI
DISSERTATSIYAGA HOSLANGAN**

ILOVA

**Alles Mögliche,
unwahrscheinliche
versprechen- (imkoni bo`lgan
va ehtimoliy va`da berish)**

**1. j-m das Blaue vom Himmel (herunter)
versprechen (umg.)-** erishib bo`lmaydigan
narsani va`da qilmoq, osmondagi oyni vada
qilmoq, oltin tog`ni vada qilmoq)

*“Der Redner versprach den Zuhörern das
Blaue vom Himmel herunter, wenn sie seine
Partei wählten .*

*“Notiq tinglovchilarga agarda uning
partiyasi g`olib chiqsa osmondagi oyni
va`da qildi.”*

**2. j-m goldene Berge versprechen-
kingadir oltin tog`ni va`da qilmoq**

*“Merke er unsere Besorgnis, fing er an,
uns zu umarmen und goldene Berge zu
versprechen. (H. Marchwitza. ``Meine
Jugend``)”*

*“U bizning tashvishimizni angladi va
barimizni quchib oltin tog`ni va`da qila
boshladi.”*

**3. j-m den Himmel auf Erden
versprechen – yeru- ko`kni va`da qilmoq)**

*“Die Nazis hatten gerade ihm den Himmel
auf Erden versprochen, er hatte sich nichts
vormachen lassen. (A. Seghers ``Die toten
bleiben jung``)”*

	<p><i>“Nasisitlar unga yeru ko`kni va`da qilishdi. U o`zini laqqilatishlariga qo`yib bermasligi kerak edi.”</i></p>
<p>Betrunkn sein (oyog`ida zo`rg`a turmoq,</p>	<p>1). einen Affen (sitzen) haben (umg., salopp)</p> <p>2). blau wie ein Veilchen sein (umg., scherzh.)</p> <p>3). voll sein wie eine Strandhaubitze (umg., salopp)</p> <p>4). voll sein wie ein Sack (umg., salopp)</p> <p>5). zu tief ins Glas geguckt (od. geschaut) haben</p> <p>6). weiÙe Mäuse sehen</p> <p><i>“Wenn er zu tief ins Glas geschaut hat, findet er meist das Schlüsselloch nicht mehr. ,, (Steppenwolf S.61)</i></p> <p><i>„U ko`pincha ichib kelgan vaqtlari, sira kalit tirqishini topa olmas edi.“ (Cho`l bo`risi. 32-bet. M. Akbarov)</i></p>
<p>Unsinn reden (bekorchi gaplarni valaqlamoq, bo`lmag`ur gaplardan safsata sotmoq)</p>	<p>1. Blech reden (od. zusammenreden) (umg., salopp)- (aravani quruq olib qochmoq, oldi- qochdi gapni gapirmoq)</p> <p><i>“Zwilling winkte gelangweilt ab. ``Rede doch nichts so`n Blech zusammen. Im Lager bleiben? Aber weisst du, ob ich schnell genug aus dem Lager `rauskomme, wenn`s soweit ist? (Br. Apitz ``Nackt unter</i></p>

Wölfen`)”

*“Svilling horg`inlik bilan qo`l siltadi.
`Oldi qochdi gap qilma. Lagerda
qolmoqlik? Ammo bilasanmi te zorada bu
lagerdan ozod bo`laman. Bu ma`lum
emasmi?”*

2. Mist (zusammenreden) (od. machen, verzapfen) (umg., salopp)- (aravani quruq olib qochmoq, oldi- qochdi gapni gapirmoq, safsata sotmoq)

“Allein Uschkraut säuft wie ein Loch, allerdings auf eigene Kosten – dabei redet er einen Mist zusammen, dass es nur so raucht! (H.H. Kirst `Die Wölfe`)”

“Ushkraut tubi teshik bochkaga o`xshab ichardi, albatta o`z narxida. Shu bilan birga safsata sotardi. Yan shunaqangi chekardiki!”

3. Kohl reden (umg., abwert)- (quloqqa lag`mon osmoq, safsata sotmoq, oldi-qochdi gapni gapirmoq)

“Ich hab` es ganz alleine kaputt gemacht. Das ist wahr.” – “Nein Lieber, rede keinen Kohl...” (H. Mann . `Professor Unrat.`)

”Men bir o`zim uni yer bilan yakson qildim. Bu haqiqat”. – “Yo`q, azizim, quloqqa lag`mon ilma.”

4. Makalatur reden (umg., salopp)- (safsata sotmoq, oldi- qochdi gapni

gapirmoq)

“Von Onkel Klaus wirst du heute nichts Vernünftig hören, der redet nur Makalatur. (MDtI)”

“Klaus tog`a bugun biror bir aqlli gap eshitomayding. U faqat oldi qochdi gaplarni gapirdi.”

5. sich (D) einen (tollen) Stiefel zusammenreden (umg., salopp)- (uch pulga arzimaydigan narsalrni gapirmoq, uch pulga qimmat gaplarni so`zlamog)

“In seiner Wahlrede hat er sich einen Stiefel zusammengeredet.”

“U o`zining saylov nutqida uch pulga qimmat gaplarni so`zladi.”

6. reden (od. erzähl`) doch keinen Käse! (umg., salopp)- (safsata sotmoq, oldi-qochdi gapni gapirmoq)

“Einen solchen Mantel kann man jetzt nicht tragen. Red` doch keinen solchen Käse! (Konstr.)”

“Bunaqangi paltoni hozirda hech kim kiymaydi. Safsata gaplaringni qilma!”

7. Red` (od. erzaehl`, quatsch`) keine Opern! (umg., salopp) - (aravani quruq olib qochmoq, safsata sotmoq, oldi- qochdi gapni gapirmoq)

“Quatsch` keine Opern!`` hoerte ich gleich darauf den groesten der Brueder Vogt

	<p><i>Koester anknarren. (E.M . “Drei Kameraden.)”</i></p> <p><i>“Hammasi oldi qochdi gaplar!” deb Vogt Kosterning qichg`irig`ini eshitdi.”</i></p> <p>8. Rede (o. Mach) keinen Stuss- (aravani quruq olib qochmoq, safsata sotmoq, oldi-qochdi gapni gapirmoq)</p> <p><i>“Rede also keinen Stuss, Paul, und lass mich in Ruhe. (P. Evertiert. “Die sanfte Falle”)</i></p> <p><i>“Bemani safsatang bilan boshimni qotirma Paul. Meni o`z holimga qo`y!”</i></p>
<p>Bekannt sein (mashhur bo`lmoq, taniqli bo`lmoq)</p>	<p>1). J- d ist bekannt wie ein bunter Hund</p> <p>2). J- d ist bekannt wie eine bunte Kuh</p> <p><i>“Der Alte”, flüsterte sie und kam näher, hat Geld wie Heu!” (J.Erpenbek “Heimsuchung” S. 81)</i></p> <p><i>“U qari cholda, yaqinroq kelib pichirladi u, pul degani mo`l.” (J. Erpenbek “Makon istab” 59-b.)</i></p>
<p>Das gehört nicht hierher (mos kelmaslik, choynakka qopqoqdek tushmaslik va h.)</p>	<p>1. das steht auf einem (ganz) anderen Blatt (auch: das ist ein anderes Blatt) (umg.)</p> <p>(bog`dan kelsa tog`dan kelmoqlik, bu yerga umuman taluqli bo`lmaslik, daxli bo`lmaslik, aloqasi bo`lmasalik, mustasno bo`lishlik)</p> <p><i>“Seine Kompositionen kann man sich</i></p>

	<p><i>allerdings nicht anhören, obgleich ich doch noch von Konstantinopel her an schreckliche geräusche gewöhnt bin. Aber das ist ein anders Blatt. (F. Duerrenmatt. ``Drei Verdacht``)</i></p> <p><i>“Uning musiqa asarini umuman eshitib bo`lmaydi. Vaholanki Konstenapolliklar daxshli tovushlarga odatlanishgan edi. Ammo bu musiqa bundan mustasno edi.”</i></p> <p>2. das ist ein(ganz) anderes Kapitel</p> <p>(bu tamonam boshqa mavzu bo`lmoqlik, bu yerga umuman taluqli bo`lmaslik, daxli bo`lmaslik, aloqasi bo`lmasalik, mustasno bo`lishlik, bog`dan kelsa tog`dan kelmoqlik)</p> <p><i>“Jetzt wollte der Richter den Zeugen vernehmen. Dieser anwortete aber so weitschweifig, dass Richter ihn mehrmals unterbrechen musste : “Herr, das gehoerte nicht hierher, das ist ein ganz anderes Kapitel.`` (Konstr.)”</i></p> <p><i>“Sudya Guvohni eshitishni istadi. Ammo uning javoblari mavzudan chetda bo`lib, uni sudya bir necha marotaba bo`lib qo`ydi: ``Janob, Bu umuman boshqa mavzu!”</i></p>
<p>jmd verprügeln (kimnidir o`lgudek kaltaklamoq, adabini bermoq, o`laksa qilib urmoq)</p>	<p>1. j-n blau und grün schlagen (umg., salopp)</p> <p>(og`zi burnini qon qilmoq,og`zidan qora qoni kelguncha savalamoq, o`lsa qilib urmoq)</p>

“Wenn du noch mal so spaet in die Nacht nach Hause Kommst, schlag` ich blau und gruen! (MDtI)”

“Agarda yana bir marta uyda yarim tunda kirib keladigan bo`lsang og`zi burningni qon qilaman!”

2. j-m den Ranzen vollhauen (umg.)-
(eshshakdek do`pposlamoq, kaltak yemoq)

“Und dass du puenktlich nach Hause kommst, sonst hau` dir den Ranzen voll! (MDtI)”

“O`z vaqtida uyga kel, yoqsa eshshakdek kaltak yeysan!”

3. j-m die Hosen strammziehen (od.straffziehen) (umg.)

(og`zi burnini qon qilmoq,og`zidan qora qoni kelguncha savalamoq, o`lsa qilib urmoq)

“Jetzt hat der junge wieder die Huehner auf der Strasse gelassen. Diesmal muss ich ihm die Hosen strammziehen. (MDtI)”

“Bu bola tag`in tovuqlarni ko`chaga quyib yuboribdi. Bu gal o`lasa qilib kaltaklashim kerak.”

4. j-m Frack vollhauen (od. vollschlagen) (umg.)- (basharasini bejab qo`ymoq)

“Wenn er das noch mal sagt, hau` ich ihm den Frack voll.”

“Agar yana bir marotaba gapiradigan

bo`lsa, basharasini bejab qo`yaman!”

5. j-m das Fell gerben (od. vollhauen, verhauen, blaeun) (umg.)- (zarba bermoq, ko`zini ko`kartirmoq, bir arova kaltak yemoq)

“Gegen Krieg durfte sie ja nichts sagen... solange die Feinde keinen Frieden wollten, mussten wir ihnen halt das Fell gerben... (A. Zweig. “Junge Frau von 1914)”

“Urushga qarshi ular yo`q deyishlari mumkin... Shuncha vaqt mobaynida dushmanlar ozodlikni istashmadi, biz ular zarba berishimiz kerak...”

6. j-n durch Rolle drehen (umg.)- (rosa kaltak bilan siylamoq, talqon qilib tuymoq)

“Mich haben sie durch die Rolle gedehrt”, sagte Enno, verschüchtert unter dem Blick des andern. “Wer, wer hat dich so zugerichtet, will ich wissen!” schrie das Braunhemd. (H. Fallada “Jeder stirbt fuer sich allein.”)

“Meni rosa kaltak bilan siylashdi” dedi Ennoko`z qarash qildi ko`z ostidan boshqalarga. “Kim, Kim bunga jurat qildi? Men bilishni istayman?”

7. j-n zu Brei schlagen (umg.)- (majaqlab tashlash darajasida urmoq, taqon qilmoq)

	<p><i>“Wenn er noch mal mit meiner Freundin flirtet, schlag` ich ihn zu Brei. (MDtI)”</i></p> <p><i>“Agar yana bir marotaba u mening qaylig`imga qiliq qilsa, urib talqon qilaman.”</i></p> <p>8. aus j-m Hackfleisch machen (umg.)- (majaqlab tashlash darajasida urmoq, taqon qilmoq, dabdalasini chiqarmoq)</p> <p><i>“Vor der Nacht muss er noch Quartier gefunden haben, sonst nimmt ihn Polizei fest, ... dann machen sie Hackfleisch aus ihm... (H. Fallada. ``Jeder stirbt fuer sich allein.)”</i></p> <p><i>“Kech bo`lmasdan bir kvartira topishi lozim, yo`sa politiya uni qo`lga oladi va keyin uni dabdalasini chiqaradi.”</i></p> <p>9. Wurst aus j-m machen (umg.)- (majaqlab tashlash darajasida urmoq, taqon qilmoq, dabdalasini chiqarmoq)</p> <p><i>“Liebes Götschen! Sie wollen gewiss Wurst machen aus dem Menschen!”</i></p> <p><i>“Ey, yaratgan egam! Ular odamlarni urib, talqondek tuyishmoqchi!”</i></p>
<p>Sich ruhigen (tinchlanmoq, orom olmoq va h.)</p>	<p>1.) Zur Ruhe kommen</p> <p>2.) Die Ruheigkeit bauen</p> <p><i>„Statt deine Welt zu verengern, deine Seele zu vereinfachen, wirst du immer mehr Welt, wirst schliesslich die ganze Welt in deine schmerzlich erweiterte Seele aufnehmen</i></p>

	<p><i>muesse, um vielleicht einmal zum Ende zur Ruhe zu kommen.“ (Steppenwolf S.72.)</i></p> <p><i>„O‘z olamingni toraytirish, o‘z qalbingni soddallashtirish o‘rniga sen endi, ehtimol oxiratga abadiy oromga erishish uchun yanada kengroq olamni, pirovardida butun dunyoni o‘zingning qayg‘u- hasratla kengaygan qalbing, ko‘nglingga sig‘dirishinga to‘g‘ri keladi.“ (Cho‘l bo‘risi. 38)</i></p>
<p>etwas inderkt sagen (fikrni aylantirib aytmoq, yetkazmoq va h.)</p>	<p>1). etw. Durch die Blumme sagen- (biror narsani qog‘ozga o‘rab gapirmoq)</p> <p>2). um die Ecke herum sagen (umg.) (fikrni aylantirib gapirmoq)</p> <p><i>“Es war richtig nötig, Dieter mal auf seine Fehler hinzuweisen. Aber warum hast du es ihm denn so durch die Blume gesagt? Natürlich hat er dich verstanden, aber ich galaube, unter Freunden wäre ein offenes Wort besser gewesen.”</i></p> <p><i>“Diter bu gal ham uning xatosini ko‘rastishi to‘g‘ri. Ammo nega u buni qog‘ozga o‘rab aytdi? Albatta u buni tushundi, biroq mening o‘ylashimcha, do‘stlar orasida to‘g‘ri so‘z bo‘lishi kerak.”</i></p>

<p>Erschrecken, sich enttäuschen (cho'chimoq, hafsalasi pir bölmoq, fikrlari puchga chiqmoq)</p>	<p>1). ein kalter Schauer über den Rücken laufen</p> <p>2). von den Socken sein.</p> <p><i>„Ich war sehr gekränkt durch Ihre Worte, sogar ein kalter Schauer lief mir sofort über den Rücken.“</i> (Olmon nasridan namunalar. Alex Rambes „Wie ich staatlich werden wollte. S.122)</p> <p><i>„Uning bu so'zlarini eshitib, boshimdan bir paqir suv quyildi, xatto badanlarim jimirlab ketdi.“</i> (Olmon nasridan namunalar. Aleks Rambes. Qanday qilib hushbichim bo'lmoqchiligim haqida. 123-bet)</p>
<p>sich ärgern(jahli chiqmoq, darg'azab bo'lmoq)</p>	<p>1. j-m kocht das Blut in der Adern (umg)- (Kimningdir jahldan qoni qaynagan bo'lmoq)</p> <p><i>“Mit diesem Wort hatte Fritz ihn tödlich beleidigt. Das kochte ihm in den Adern. (MDtI)“</i></p> <p><i>„Frits bu so'zi bilan uni o'lgudek ranjitdi. Uning qoni qaynadi“.</i></p> <p>2. Sich grün und blau (od. grün und gelb) ärgern (umg.)- (jahl otiga minmoq, qoni qaynamoq)</p> <p><i>„... die Münchener Maler ärgerten sich grün und gelb über den jäh aufgetauchten Konkurrenten. (L. Feuchtwanger . Erfolg.)“</i></p> <p><i>„Myunxenlik rassomlar tosatdan paydo</i></p>

bolib qolgan raqiblaridan zardalari qaynadi.“

3. j-m Platz der Kragen (umg.)- (sabri quyushqondan chiqmoq)

„Wenn es aber Tag fuer Tag, Woche um Woche und Monat um Monat so geht, kann einem doch der Kragen platzen,“ knurrt Karl Berger (H. J . Geyer `` Am Anfang stand das Ende)“

„Agar kunma- kun, haftama –hafta, oyma – oy shunday ketaversa, sabr quyushqondan chiqadi.“

4. da geht j-m der Hut hoch! (umg.)- (jahl otiga minmoq, qoni qaynamoq)

„Als Werner hat er sich vorgestellt? Affig. Wo er sich doch denken kann, dass Sie als mein Stellvertreter genau wissen, wer er ist. Na, mir geht langsam der Hut hoch ... (H. J. Geyer `` Am Anfang stand das Ende“

„Verner uni tanishtirdimi? Bemanilik. Ularni mening rahbarimni aniq bilishlari haqida uning xayoliga qayerdan kela qoldi ekan. Asta sekin sabr kosam to `layapti“

5. Die Galle läuft j-m über (od. kommt hoch, rennt ins Blut) (umg.)- (sabri quyushqondan chiqmoq, qoni qaynamoq)

„Ludwig und Otto waren jedoch Arbeiter, die –nein, Trampel, Hohlkoeöpfe waren sie und stur, unbelehbar. Die Galle rann ihm

ins Blut, wenn er an sie und ihre haltung dachte. (W. Bredel ``Die Soehne).''

“Ludvig va Ottolar ishchi edilar. Yo`q, ular qovushvagan, beso`naqay, dumbul, va quloqsiz edilar. U ular va ularning o`zlarini tutishlari haqida o`ylasa qoni qaynardi.”

6. Eine Wut im Bauch (od. im Balg) haben (umg.)- (jahl otiga minmoq)

“Komm dem Kraemer nicht zu nahe. Der hat eine fuerchterliche Wut im Bauch. (MDtI)Ä”

“Kramerga yaqin kelma . Hozir u jahl otiga mingan.”

7. einen Bauch voll Zorn (od. Wut) haben (umg.)- (yuragi g`azabga to`lmoq, alami bor bo`lmoq)

“Mir geht`s saudreckig, Karl. Auf Hübner habe ich einen bauch voll Zorn, und Lotte auch. Hat uns beide kaltgestellt. (H.J. Geyer “Am Anfang stand das Ende”).

“Karl, ahvolim yomon. Hubnerga ko`rsam qonim qaynaydi, Lottedda shunday holat. Qarama qarshi bo`lib qolganmiz.”

8. auf der Palme sein (umg.)- (g`azab otiga minmoq)

“Vater ist mal wieder auf der Palme, weil Fritz , ohne zu fragen, mit dem Wagen fort ist.”

“Dadam g`azab otiga mingan. Chunki Frits undan so`ramsi mashina bilan jo`nab ketgan.”

9. in Harnisch geraten (od. kommen) (umg., salopp)- (zardasi qaynamoq, sabri quyushqondan chiqmoq, qoni qaynamoq)

“Als ich sagte, er taete ueberhaupt nichts fuer seine alte Mutter, da ist er aber in Harnisch geraten.”

“Men uning keksa onasi uchun umuman hech narsa qilmaganini aytganimda , uning zardasi qaynadi.”

10. aus der Haut fahren (umg.)- (jonidan o`tib ketmoq, sabri quyushqondan chiqmoq)

“Als Navarra es gleich darauf zum dritten Male tat, fuhr jemand aus der Haut Anjou. Er erlaubte sich, auf den Tisch zu hauen, trotz seiner Frucht vor den Anfaellen Karls ... (H. Mann `` Henri Quatre, Jugend.`` Nach DRW)”

“Navarra buni uchinchi marotaba qilganda jonidan o`tib ketdi: Anju. U Karlga nisbatan qo`rquvi bo`lishiga qaramay stoni hatlab o`tdi...”

11. an die Decke gehen (umg.)- (fig`oni ko`kka chiqmoq, fig`oni falakda bo`lmoq)

“Du sollst dich doch bei Herrn Mueller wegen der zerschlagenen Scheibe entschuldigen!” - “Das wollte ich auch;

aber er ist ja gleich an die Decke gegangen und ha mich gar nicht zu Worte kommen lassen. Dann hat er einfach die Tuer zugeschlagen.”

“Sen janob Myullerdan singan oyna uchun uzr so`rashing kerak!`` -`` Buni men ham xoxlagandim; Ammo uning fig`oni falakda. Bir so`z aytishga ham qo`ymadi. Keyin eshikni basharamga yopdi.”

12. in die Luft gehen (umg.)- (zardasi qaynamoq, sabri quyushqondan chiqmoq, qoni qaynamoq)

“Er ist schon ein netter Kerl, aber bei kleinsten Kleinigkeiten geht er in die Luft. (MDtI)”

“U yoqimtoy yigitcha. Ammo mayda chuyda narsalar ham uni qonini qaynatadi.”

13. in Fahrt kommen (umg.)- (qoni qaynasa, zardasi qaynasa, jahl otiga minsa)

“Wenn unser Vater in Fahrt kommt, dann gibt`s Ohrfeigen und andere Strafen.

“Agarda dadamiz jahl otiga minadgan bo`lsa, biz quloq chakkamizdan schapaloq yeymiz va boshqa jazolarni olamiz.”

14. Gift und Galle speien (od. spucken) (umg.)- (o`t bo`lib yonmoq (jahldan)

“Unser König verheiratet heute seine Schwester an den fremdan Herrn, der einer

	<p><i>der Ketzer ... sein soll.. Unser Pfarrer speit dagegen gift und Galle. (H.Mann `Henri Quatre, Jugend.` ` Nach DRW)`</i></p> <p><i>“Qirolimiz o`z singlisini dahriy bo`lgan boshqa bir mamlakat janobi unashib quydi. Budan ruhoniy jahldan o`t b`olib yondi.”</i></p> <p>15. da geht einem das Messer in der Tasche auf (umg.)- (pichoq qinidan chiqmoq, tish qayramoq, jahl otiga minmoq)</p> <p><i>“Wenn man sieht, wie du das Tier quälst, könnte einem das Messer in der Tasche aufgehen. (Konstr.)”</i></p> <p><i>“Agarda sening hayvonlarga azob beryotganingni ko`rsalar, senga qarshi tish qayraydilar. “</i></p>
<p>Sterben (vafot etmoq ma`nosida va ba`zi iboralarda o`limi yaqin bo`lmoq)</p>	<p>1.) mit einem Bein (od. Fuß) bereits im Grabe stehen (umg.);</p> <p>2.) in den letzten Zügen liegen</p> <p>3.) ins Grass beissen</p> <p>4.) auf dem letzten Loch pfeifen.</p> <p><i>„Er kann nichts mehr übernehmen. Der steht doch mit einem Bein im Grabe.“ (J.W. Goethe. Die Leiden des jungen Werthers“ S.49)</i></p> <p><i>„U deyarli hech narsani sezmay qoldi. O`lim to`shagida yotibdi axir“. (Yosh Verterning iztiroblari.Y.Egamova tarjimasi. 31-b)</i></p>

<p>viel Geld haben (puli ko'p bo'lmoq, puli oshib-toshib yotmoq)</p>	<p>1). <i>Geld wie Heu haben;</i> 2). <i>jmnd stinkt nach Geld;</i> 3). <i>Knöpfe haben va b.</i></p> <p><i>“Der Alte”, flüsterte sie und kam näher, hat Geld wie Heu!”</i> (J. Erpenbek “Heimsuchung” S. 81)</p> <p><i>“U qari cholda, yaqinroq kelib pichirladi u, pul degani mo'l.”</i> (J. Erpenbek “Makon istab” 59-b.)</p>
---	---